



UYUSHGAN JINOYATCHILIK VA KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-mart kuni kiberjinoyatlar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda internet tarmog‘ida axborot tarqatish va ma’lumot izlash imkoniyatlari kengaymoqda. Jumladan, O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning soni 31 milliondan oshgan bo‘lib, shundan 14 millioni ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda.

Shu bilan birga, huquqbuzarlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan g‘arazli maqsadlarda foydalanish holatlari kun sayin ortib bormoqda.

Xususan, so‘nggi olti yilda yurtimizda kiberjinoyatlar bo‘yicha murojaatlar soni 48 baravarga oshgan. O‘tgan yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining 82 foizi, o‘g‘irlik jinoyatlarining 76 foizi kibermakonda sodir etilgan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 2 trillion so‘mdan oshgan.

Ta’kidlanganidek, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning keskin ko‘payib borayotgani milliy qonunchilikka shunday turdagi jinoyatlar uchun jazo choralari og‘irlashtirish va kiberjinoyatlarining yangi shakllari uchun javobgarlik belgilash bo‘yicha normalarni kiritish vaqi kelganini ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar hamda ko‘plab fuqarolarga jabr keltirayotgan “moliyaviy piramida” uchun jazo choralari kuchaytirish maqsadga muvofiq ekanini qayd etildi.

Fuqarolarning o‘z nomlariga rasmiylashtirilgan elektron to‘lov vositalari hamda abonent raqamlardan foydalanishda shaxsiy mas’uliyatini oshirish maqsadida o‘z nomidagi elektron to‘lov vositasi, kriptohamyoni, SIM-kartasi va elektron akkauntlardan kiberjinoyatni sodir etishda foydalanilishiga yo‘l qo‘yganlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilash taklif qilindi.

Ta’kidlash kerakki, bugun muhim axborot infratuzilmasi obyektlariga qarshi qaratilgan kiberhujumlar natijasida katta salbiy oqibatlar va

moddiy zarar olib keluvchi kiberhujumlar global tus olib, respublikamizda ham kuzatilmoqda. Bu esa yuridik shaxslar o‘z tasarrufidagi axborot tizimlarining xavfsizligini bugungi kundagi zamonaviy tahdidlarga munosib tarzda takomillashtirib borishi va kiberxavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratishini taqozo etmoqda.

Shunga ko‘ra, yuridik shaxslar tomonidan axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganlik uchun oqibat kelib chiqqan-chiqmagani qat’i nazar, ma’muriy javobgarlikni belgilash taklif qilindi.

Ushbu amaliyot masofadan moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatuvchi banklarga ham taalluqli bo‘lib, ular ham o‘z tizimlarida firibgarliklarning oldini olish bo‘yicha himoya va xavfsizlik choralari muntazam takomillashtirib borish zarurati yuzaga keltirilmog‘da.

Xususan, o‘tgan yillarda 3 ta bank tizimidagi zaiflik tufayli 3025 nafar mijozga 17 milliard so‘m moddiy zarar yetkazilgan.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlari axborot xavfsizligi hamda kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganligi natijasida sodir etilgan kiberjinoyat oqibatida yuzaga kelgan moddiy zarar uchun javobgar bo‘lishini qonunan mustahkamlash tashabbusi ilgari surildi.

Taqdimotda uyushgan jinoatchilikning sodir etish shakli va uslublari yangilanib borayotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Uyushgan guruhlar tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqchasiga mensimasdan, o‘zini qonundan ustun qo‘yib, bezorilik jinoyatlarini sodir etganligi yoki bezorilik jinoyatining og‘ir shakllaridan biri — o‘qotar qurolni namoyish qilib yoki uni qo‘llab hamda takroran sodir etganligi, shuningdek, jamoat tartibini saqlash vazifasini

bajarib turgan hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatgan holda sodir etilganlik uchun jazo choralari bugungi kunda yetarli ta’sir kuchiga ega emasligi ta’kidlandi.

Shuningdek, so‘nggi vaqtlarda jangovar (aralash) sport turlari bo‘yicha yashirin ravishda noqonuniy janglar tashkil qilinib, ularda yoshlarning ishtirok etayotgani kuzatilmoqda. Biroq bugungi kunda buning uchun javobgarlik choralari mavjud emasligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu bois, qonun hujjatlariga mana shunday xavf-xatarlarning oldini olish, ularga qarshi ayovsiz kurashish, bunday illatni tag-tomiri bilan yo‘qotishga qaratilgan normalarni kiritish vaqi kelgani ta’kidlandi.

Og‘ir va o‘ta og‘ir turdagi jinoyatlarini sodir etish maqsadida jinoiy uyushma tashkil etganlik, uni moliyalashtirganlik, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarini yashirishga homiylik qilganlik, jangovar sport turlari bo‘yicha musobaqalarni noqonuniy tashkil etganlik va o‘tkazganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi, bezorilik jinoiyati uchun jazo choralari kuchaytirishni nazarda tutuvchi, shuningdek, qonunga zid ravishda tashkil etilgan jangovar sport turlari bo‘yicha musobaqalarda ishtirok etganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normalar kiritish taklif etildi.

Muhokama qilingan yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqilgan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda uyushgan va jamoat joylaridagi jinoatchilikka qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihalari taqdimot qilindi.

Prezidentimiz takliflarni ma’qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA



Mamlakatimiz rahbarining alohida mehri va e’tibori yangi O‘zbekistonimiz tarixida bugun yangi Qoraqalpog‘istonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlariga mustahkam asos bo‘lmoqda.

TARAQQIYOT SARI YANGI IMKONIYATLAR

Xususan, hududning yalpi ichki mahsuloti 2017-yilda 13,5 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil boshida bu ko‘rsatkich 4 barobar o‘sdi, ya’ni 52 trillion so‘mni tashkil qildi. Korxonalar soni 29 mingga yetdi.

Bu 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar ko‘p demakdir. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot qiymati 23 million so‘mga to‘g‘ri keldi. Hududiy korxonalarda sanoat mahsulotlari hajmi 4,3 barobar ko‘paydi. Ishlab chiqarilgan

mahsulot hajmi 7 trillion so‘mdan 31 trillion so‘mga oshgan bo‘lsa, 2025-yilgi tovarlar eksporti 2017-yildagiga nisbatan 14 barobar o‘sib, 450 million dollarga yetkazildi.

Davomi 2-betda



RIVOJLANISH BARCHAGA DAXLDOR BO‘LGANDAGINA UMUMMILLIY YUTUQQA AYLANADI

Iqtisodiy o‘shish haqida so‘z yuritganda, avvalo, uning mohiyatiga nazar tashlash zarur. O‘shish faqat yil yakunida qayd etiladigan raqamlar emas, balki ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, daromadlar barqarorligi va bozor faolligining o‘zaro bog‘liq harakatidir. U iqtisodiyotning ichki quvvati qay darajada ishga solingan, imkoniyatlar qay darajada samaraga aylanganini ko‘rsatadi. Agar ushbu jarayon chuqur tahlil va aniq ustuvor yo‘nalishlar bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, ko‘rsatkichlar o‘shishi mumkin, ammo mazmun jihatidan sezilarli o‘zgarish kuzatilmaydi.

Ana shunday sharoitda har bir hudud tabiiy, iqtisodiy va inson resurslariga tayanadigan mustaqil qiymat yaratadigan makon sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir tarmoq esa samaradorlik va innovatsiya asosida iqtisodiy faollikni ta’minlaydigan muhim bo‘g‘inga aylanadi. Yuqori iqtisodiy o‘shish aynan shu ikki omil — hududiy imkoniyat va tarmoq salohiyati uyg‘unlashganida barqaror tus oladi. Aks holda, o‘shish nomutanosiblikka olib kelishi, salohiyat esa to‘liq ishga solinmay qolishi mumkin.

13-fevral kuni davlatimiz rahbari raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Bugungi dunyoda iqtisodiy o‘shish oddiy jarayon emas. Global iqtisodiyot uzluksiz o‘zgarish holatida: savdo yo‘llari qayta shakllanmoqda, yirik davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat bozorlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda o‘shish sur’atlari sekinlashgan, ayrimlari inflatsiya va byudjet taqchilligi muammosi saqlanib qolmoqda. Bunday sharoitda barqaror o‘shishni ta’minlash iqtisodiy faollik emas, balki strategik muvozanatni saqlash xususiyatidir.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON DIPLOMATIYASINING INSONPARVARLIK MISSIYASI

Bugun xalqaro munosabatlar tizimida kuzatilayotgan geosiyosiy keskinliklar, mintaqaviy mojarolar va transport kommunikatsiyalaridagi uzilishlar davlatlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday vaziyatlarda har bir davlat o‘z fuqarolarini himoya qilish hamda xavfsizligini ta’minlash borasida tezkor va samarali qarorlar qabul qilishga majbur bo‘ladi. Bu esa diplomatiya, transport logistikasi, konsullik xizmati va xalqaro hamkorlik mexanizmlarining uyg‘un faoliyatini talab qiladi.

Ayni kunlarda Yaqin Sharq mintaqasida yuzaga kelgan murakkab vaziyat ana shu masalaning naqadar dolzarb ekanini yana bir bor namoyon etdi. Mintaqada xavfsizlik muhitining keskinlashuvi, ayrim davlatlarda havo hududlarining vaqtincha yopilishi va xalqaro aviataqimovlarning cheklanishi minglab odamlarning

harakatlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu holat, ayniqsa, Yaqin Sharq davlatlarida mehnat qilayotgan, xizmat safarida, sayohatda bo‘lgan etdi. Mintaqada xavfsizlik muhitining yurtdoshlarimiz uchun muayyan xavf-xatarlarni yuzaga keltirdi.

Davomi 2-betda



O‘ZGARAYOTGAN DEHQONCHILIK MADANIYATI

Yerga egalik huquqi mehnat va mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq

Jahon iqtisodiyoti bugun ancha murakkab va bashorat qilib bo‘lmaydigan davrni boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy ziddiyatlar, iqlim o‘zgarishi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va bozorlardagi keskin tebranishlar global iqtisodiy tizim qanchalik nozik ekanini yana bir bor namoyon qildi. Kechagina barqaror deb hisoblangan iqtisodiy munosabatlar kutilmagan sinovlar qarshisida turibdi.

Ayniqsa, bugungi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki iqtisodiy barqarorlikni faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar yoki sanoat o‘shishi bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash har qanday davlat mustaqilligining eng muhim ustunlaridan. Agar mamlakat o‘z aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda tashqi bozorlarga ortiqcha bog‘lanib qolsa, global iqtisodiy siljishlar va bozorlardagi keskin o‘zgarishlar uning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Davomi 4-betda



Yoshlarga oid davlat siyosati — amalda

VAZIFAMIZ – YUQORI MALAKALI MUHANDISLAR TAYYORLASH



Davlatimiz rahbarining yurtimiz yoshlari bilan uchrashuvini kuzatar ekanman, sakson yoshni qarshilayotgan olim va ustoz-murabbiy sifatida ularga samimiy havasim keldi. Qanday dorilamon kunlarga yetdikki, o‘g‘il-qizlarimiz chinakam e’zoz-u ehtiromda, shaxsan Prezidentimizning e’tiborida. Shularni kuzata turib, o‘tgan asrning 80-yillarida men va do‘stlarim bilan sodir bo‘lgan bir voqea yodinga tushdi. Biz — orzu va shijoatga to‘lgan navqiron tadqiqotchilar doktorlik dissertatsiyalarimizni tayyorlayotganimizda bir guruh “katta olimlar” tomonidan “Nega bular hali 40 yoshga to‘lmasdan fan doktori bo‘lmoqda?” degan o‘rinsiz ta’nalarga, qator qarshiliklarga uchraganmiz.

Davomi 5-betda

TARAQQIYOT SARI YANGI IMKONIYATLAR

Murat ATAMURATOV, Jo‘qorg‘i Kengessning Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati, turizm va jamoat birlashmalari masalalari qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning har bir farmoni va qarorida Qoraqalpog‘istonga e‘tibor qaratilib, hudud aholisi va tadbirkorlari uchun imtiyozlar berilmoqda. Ana shunday imkoniyatlarni bugun aholining har bir vakili o‘z hayotida his etmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston yoshlari uchun davlat OTMariga ajratilgan qo‘shimcha kvota asosida o‘tgan uch yilning o‘zida 31 mingga yaqin yig‘it-qiz talaba bo‘lish baxtiga muvassar bo‘ldi. 2022-yil 15-sentabrda boshlab pensiya va ijtimoiy himoyaga muhtoj nafaqa oluvchilar, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun temir yo‘l va aviatsiya chiptasi narxi 2 barobar arzonlashtirilgani har yili minglab fuqarolarning uzog‘i yaqin, og‘iri yengil bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining topshirig‘i asosida shahar va tumanlarga birkittirilgan viloyatlar bilan birga 21 mingdan ortiq uy-joy tomini shiferlash hamda avariya holatidagi, yashash uchun yaroqsiz 709 ta uy-joyini yangidan qurish belgilangan. Bugun 17 mingdan ziyod uy-joy shiferlanib, 326 ta imoratning yangidan qurilishi ijtimoiy himoyaga muhtoj yuzlab insonlar hayotiga mazmun olib kirdi.

Mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini oshirish, ayniqsa, xorijlik sayyohlarga qulay sharoit yaratishga alohida e‘tibor qaratilayotgani ham diqqatga loyiq. Buning amaliy natijasi sifatida “Nukus — Mo‘ynoq”, “Nukus — Olmaota” va “Nukus — Aqtai” yo‘nalishlari bo‘yicha aviataqnovlar, shuningdek, “Nukus — Mang‘istov” va “Nukus — Urganch” yo‘nalishida poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash hamda aholi farovonligini ta‘minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratishga doir tegishli farmoni



asosida 2025-2027-yillarda yer uchastkalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri ajratishni davom ettirishga ruxsat berilib, investorlar majburiyati yanada yengillashtirildi. Ya‘ni Nukus shahrida qiymati



kamida 500 ming dollarlik, Amudaryo, Nukus, Qo‘ng‘irot va Xo‘jayli tumanlarida 300 ming, qolgan tumanlarda 100 ming dollarlik investitsiya loyihalariga ham ushbu tartib joriy etildi.

Qoraqalpog‘istonda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalariga elektr energiyasi uchun 15 foizli imtiyoz berilishi natijasida 2500 dan

ortiq korxonaning har oyda o‘rtacha 4-5 milliard so‘mdan shu kungacha 30 milliard so‘m mablag‘i o‘z ixtiyorida qoldirildi. Tadbirkorlar uchun qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish maqsadida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha 125 loyihaga 188 milliard so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, lekin bo‘sh turgan 30 ming 720 gektar yer uchastkasi onlayn auksionga chiqarilib, 1143 subyektaga bo‘lib to‘lash huquqi bilan ajratildi.

Mamlakatimiz rahbarining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzurida Mahallalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida 452 mahallaning har biriga 500 million so‘mdan, jami 228 milliard so‘m ajratilib, mahallalardagi ijtimoiy va infratuzilma obyektlarida qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarildi.

Xalqni bir necha yildan buyon qiynab kelayotgan 2500 ga yaqin muammoga yechim topildi. Shuningdek, 452 mahalladagi

“ Prezidentimizning 2026-yil 21-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kelgusi yillar uchun mo‘ljallangan dasturlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori taraqqiyotimiz yo‘lidagi yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.



kanal tozalandi, 102 kilometri betonlandi. Natijada fuqarolarning tomoqalaridan qo‘shimcha daromad olishiga imkoniyat yaratildi. Qolaversa, mahallalarda aholining dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanishiga yaqindan yordam ko‘rsatuvchi 50 ta servis kompaniya tashkil etildi.

Keng ko‘lamli islohotlar hududlar taraqqiyotini ta‘minlash, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Bu jarayondan Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor. Albatta, bu borada hududni rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan ko‘plab farmon va qarorlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qoraqalpog‘istonliklarning

hayotini yaxshilash, kelajak avlod uchun ham munosib sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning 2026-yil 21-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kelgusi yillar uchun mo‘ljallangan dasturlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori taraqqiyotimiz yo‘lidagi yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Hujjarga ko‘ra, 2026-yil yakuniga qadar yalpi hududiy mahsulot hajmini 8,1 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 8 foiz oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, ishsizlik darajasini 4,2 foizgacha, kambag‘allikni esa 3,2 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Nukus shahri, Qo‘ng‘irot va Chimboy tumanlari hamda 109 mahallani ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish vazifasi qo‘yilgan.

Kun mavzusi

Boshlanishi 1-betda

Mazkur sharoitda davlatimiz o‘z fuqarolari taqdiriga befarq qaramadi. Tekzor diplomatik chora-tadbirlar, konsullik xizmatlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati va fuqarolik aviatsiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida qisqa vaqtda keng ko‘lamli evakuatsiya ishlari amalga oshirildi.

2026-yil 10-mart holatiga ko‘ra, Yaqin Sharq davlatlaridan 25 mingdan ziyod o‘zbekistonlik yurtimizga qaytarildi. Ular orasida mehnat migrantlari, ziyoratchilar, sayyohlar, talabalar va xizmat safarida bo‘lgan vatandoshlarimiz bor. Bu raqamlar oddiy statistik ma‘lumot emas. Ular davlatimizning o‘z fuqarolari oldidagi mas‘uliyati, diplomatiyamizning samaradorligi va konsullik xizmatining tekzor faoliyatini namoyon etuvchi ko‘rsatkichdir. Eng muhimi, mazkur jarayon zamonaviy O‘zbekiston tashqi siyosatining inson manfaatlari va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan tamoyillari amaliy natija berayotganini ko‘rsatdi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Yaqin Sharq davlatlaridan vatandoshlarimizni evakuatsiya qilish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar faqat tekzor gumanitar operatsiya, balki davlatning konsullik siyosati, diplomatik imkoniyatlari va institutsional salohiyatini namoyon etgan muhim tajriba sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Mazkur jarayonni to‘liq anglash uchun esa, avvalo, Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy vaziyat va xavfsizlik muhitini tahlil qilish zarur.

Geosiyosiy vaziyat va o‘zgarib borayotgan xavfsizlik muhiti

Yaqin Sharq mintaqasi tarixan xalqaro siyosatning eng murakkab geosiyosiy makonlaridan. Ushbu hududdagi siyosiy jarayonlar ko‘pincha faqat mintaqaviy davlatlar bilan cheklanib qolmay, global xavfsizlik arxitekturasiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Energetika resurslari, strategik transport yo‘nalishlari, diniy va madaniy omillar, shuningdek, katta geosiyosiy raqobat elementlari bu mintaqadagi barqarorlikni doimiy ravishda sinovdan o‘tkazib kelmoqda.

Hatto qisqa muddatli siyosiy keskinlik ham transport kommunikatsiyalari, savdo aloqalari va mehnat migratsiyasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Yuzaga kelgan vaziyat ana shu omillarning o‘zaro ta‘siri natijasi

sifatida shakllandi. Ayrim davlatlarda xavfsizlik choralari kuchaytirilishi, havo hududidan foydalanishga cheklovlar joriy etilishi va xalqaro aviataqnovlarning vaqtincha qisqarishi mintaqadagi transport logistikasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Xalqaro aviatsiya sohasida yuzaga kelgan bunday cheklovlar minglab odamlarning harakatlanishi imkoniyatini cheklab qo‘ydi.

Yaqin Sharq dunyodagi eng yirik aviatsiya xabarlaridan. Dubay, Doha, Abu-Dabi, Jidda va Ar-Riyod kabi shaharlardagi xalqaro aeroportlar global aviatsiya tarmog‘ining muhim uzellarini tashkil etadi. Osiyo, Yevropa va Afrika o‘rtasidagi ko‘plab parovozlar aynan shu nuqtalar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur mintaqadagi havo hududlari bilan bog‘liq har qanday cheklov butun xalqaro aviatsiya tizimiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Mintaqadagi vaziyat mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq jarayonlarga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Yaqin Sharq davlatlari, ayniqsa, Saudiya Arabistoni, BAA va Qatar xalqaro mehnat bozorining muhim markazlaridan. Bu mamlakatlarda dunyo bo‘ylab millionlab mehnat migrantlari faoliyat yuritadi va ular orasida Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston fuqarolari ham katta ulushni tashkil etadi.

So‘nggi yillarda yurtdoshlarimizning mazkur mamlakatlarda mehnat qilishi salmog‘i sezilarli darajada oshdi. Bu, avvalo, ushbu davlatlardagi iqtisodiy rivojlanish sur‘ati, yirik infratuzilma loyihalarining ko‘payishi va mehnat bozorida xorijiy ishchi kuchiga talabning ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ziyorat turizmining faollashishi ham bu mintaqada o‘zbekistonliklar ishtirokini ko‘paytigan muhim omillardan.

Xavfsizlik bilan bog‘liq har qanday inqiroz yoki transport kommunikatsiyalaridagi uzilish minglab fuqarolar uchun tizimli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bunday sharoitda davlatlar oldida ikki muhim vazifa yuzaga keladi. Birinchisi, o‘z fuqarolarining xavfsizligini ta‘minlash. Ikkinchisi, ularning vatanga qaytishi uchun zarur tashkiliy va diplomatik sharoitlarni yaratish. Bu esa tekzor qaror qabul qilish, xalqaro hamkorlik mexanizmlaridan samarali foydalanish va transport logistikasini qayta tashkil etishni talab qiladi.

Yaqin Sharq mintaqasida yuzaga kelgan mazkur vaziyat yana bir muhim xulosani ko‘rsatdi: globalashuv sharoitida xavfsizlik muammolari faqat muayyan davlat yoki hudud bilan cheklanib qolmaydi. Ular ko‘pincha butun xalqaro transport va iqtisodiy tizimga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, davlatlar o‘z tashqi siyosatida fuqarolar xavfsizligi masalasiga alohida e‘tibor qaratishi, konsullik xizmatlari faoliyatini kuchaytirishi va favqulodda vaziyatlarda tekzor harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

O‘zbekistonning mazkur vaziyatdagi harakatlari aynan shu tamoyillarga asoslandi. Mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning murakkabligiga qaramasdan, davlatimiz tomonidan tekzor diplomatik chora-tadbirlar ko‘rildi, konsullik xizmatlari faoliyati kuchaytirildi va fuqarolarni xavfsiz hududlar orqali vatanga qaytarish bo‘yicha amaliy mexanizmlar ishga tushirildi. Bu jarayon nafaqat favqulodda vaziyatga berilgan tekzor javob, balki mamlakatimiz tashqi siyosatining inson manfaatlarini ustuvor qo‘yishga asoslangan strategik yo‘nalishini ham yaqqol namoyon etdi.

Aynan shu nuqtada davlatlararo hamkorlik va oliy darajadagi diplomatik muloqotlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Shu bois, evakuatsiya jarayonining muvaffaqiyatini tushunish uchun mazkur davrda o‘rnatilgan diplomatik aloqalarga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Yaqin Sharq davlatlaridan yurtimiz fuqarolarini xavfsiz hududlar orqali vatanga qaytarish jarayoni faqat texnik yoki logistik chora-tadbirlar bilan cheklanib qolgan yo‘q. Bu jarayonda oliy darajadagi siyosiy muloqotlar, davlat rahbarlari o‘rtasidagi ishonch va diplomatik hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mintaqadagi murakkab vaziyat sharoitida aviataqnovlar, tranzit yo‘nalishlari va fuqarolar harakatlanishi bilan bog‘liq masalalarni hal qilish ko‘p hollarda davlatlararo munosabatlar darajasidagi kelishuvlarni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimiz yetakchisining Yaqin Sharq davlatlari rahbarlari bilan telefon orqali muloqotlari evakuatsiya jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishida muhim siyosiy va diplomatik omil bo‘ldi. Xususan,



Oybek QO‘SHBOQOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti bo‘lim boshlig‘i

mazkur jarayonda O‘mon Sultoni Haysden bin Tazir, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Nahayon, Kuvayt Davlati Valiahdi Shayx Saboh Xolid al-Hamad as-Saboh, Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy, Bahrayn Podshohi Hamad bin Iso Ol Xalifa, Jordaniya Podshohi Abdulla II bilan telefon orqali muloqot qilindi. Ushbu suhbatlarda mintaqadagi vaziyat, xavfsizlik masalalari hamda fuqarolarning xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash bilan bog‘liq amaliy chora-tadbirlar muhokama markazida bo‘ldi.

Avvalo, bu muloqotlar davlatlar o‘rtasidagi siyosiy ishonch va strategik sheriklik munosabatlarining amaliy ko‘rinishidir. Xalqaro munosabatlar amaliyotida favqulodda vaziyatlarda davlat rahbarlari darajasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot eng samarali diplomatik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday muloqotlar orqali muhim qarorlar tekzor qabul qilinishi va zarur amaliy mexanizmlar ishga tushirilishi mumkin.

Ikkinchidan, bu muloqotlar davlatimiz tashqi siyosatining so‘nggi yillarda shakllangan pragmatik va ochiq diplomatiya modeli amaliy

natija berayotganini yana bir bor namoyon etdi. Mamlakatimiz Yaqin Sharq davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarida keng qamrovli hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

Mazkur diplomatik muloqotlar davlatimiz tashqi siyosatining muhim xususiyatlaridan biri — ishonchga asoslangan diplomatiya tamoyili samaradorligini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda mamlakatimizning Yaqin Sharq davlatlari bilan o‘rnatilgan konstruktiv munosabatlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalar, balki favqulodda vaziyatlarda ham amaliy samara bermoqda.

Amaliy mexanizmlar va institutsional salohiyat

Yaqin Sharq davlatlaridan mamlakatimiz fuqarolarini olib kelish jarayonida konsullik diplomatiyasi va transport logistikasi o‘zaro uyg‘un holda ishlagani alohida e‘tiborga loyiq. Favqulodda vaziyatlarda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash faqat siyosiy qarorlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon amalda qator tashkiliy, huquqiy va texnik mexanizmlarni ishga tushirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur evakuatsiya operatsiyasi davlat boshqaruvi tizimi, diplomatik xizmatlar va transport infratuzilmasining muvofiqlashtirilgan faoliyatini namoyon etgan muhim tajriba sifatida baholalanishi mumkin.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida konsullik diplomatiyasi davlat tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri. Agar diplomatiyaning an‘anaviy vazifalari davlatlararo siyosiy muloqotni ta‘minlashdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, konsullik diplomatiyasining asosiy vazifasi xorijdagi fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga amaliy yordam ko‘rsatish va zarurat tug‘ilganda xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

Bu borada xalqaro huquqiy asoslar ham aniq belgilab berilgan. 1963-yilda qabul qilingan Vena konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi konvensiya davlatlarga xorijdagi o‘z fuqarolari manfaatini himoya qilish huquqini beradi. Ushbu hujjatga muvofiq, konsullik muassasalari favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga yordam ko‘rsatish, ularning xavfsizligini ta‘minlash

Qarorda 2030-yilga mo‘ljallangan strategik ko‘rsatkichlar ham belgilangan. Unga muvofiq, yalpi hududiy mahsulot hajmini 102,4 trillion, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini 28,9 trillion so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. Sanoat va xizmatlar sohasida jami 7,2 milliard dollar qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Qolaversa, eksport hajmini 900 million dollarga yetkazish, sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga 5 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyani jalb qilish orqali mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini o‘n baravar oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining umumiy generatsiya quvvatidagi salmog‘ini 70, aholi punktlarining markazlashgan ichimlik suv ta‘minotini 83,5 foizga yetkazish belgilandi.

Qaror doirasida boshqaruv tizimida ham o‘zgarishlar bo‘ladi. Xususan, Vazirlar Kengashi Raisining ekologiya va Orolbo‘yi hududini rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimi tugatilib, o‘rniga yaylovlardan samarali foydalanish, chorva ozuqa bazasini mustahkamlash va chorvachilikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosar lavozimi joriy etiladi.

Shuningdek, qarorga asosan, “Beruniy Agro Star” MCHJ tomonidan loyihaviy yondashuv asosida Qo‘ng‘irot, Chimboy, Beruniy, Kegeyli, Bo‘zatov, Qonliko‘l, Shumanay va Mo‘ynoq tumanlaridagi 33 mahallada tuproq va suv tahlilini o‘tkazish, arzon narxlarda sifati chorva ozuqa urug‘ini yetkazib berish hamda zarur texnika va agronom xizmatlarini ko‘rsatish ishlari bajariladi. Qo‘ng‘irot, Chimboy, Beruniy, Bo‘zatov va Qonliko‘l tumanlarida chorva ozuqasini yetishtirish, saqlash, qadoqlash quvvatlarini ishga tushirish va aholiga yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

2026-yil yakuniga qadar Beruniy tumanida yillik quvvati 36 ming tonna bo‘lgan chorva va baliq ozuqasini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan zamonaviy agromajmua loyihasi ishga tushiriladi.

2026-2028-yillarda Qoraqalpog‘istonda 10 ming gektarda chorva ozuqasi yetishtirish choralari ko‘riladi. Bunda sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘simliklarning o‘sish jarayoni monitoring qilinadi va kasalliklarni erta aniqlash chorasini ko‘riladi hamda zamonaviy suv tejoychi texnologiyalardan foydalaniladi.

Bundan tashqari, 2026-2030-yillarda Nukus shahri atrofida 15 ming gektar (shundan 3000 gektariga daraxt va buta ekiladi) maydonda “yashil belbog‘”lar barpo etiladi va cho‘llanishga qarshi kurashish tadbirlari o‘tkaziladi.

Barcha soha rivoji, ko‘plab yangi imkoniyat hamda imtiyozlarni qamrab olgan ushbu tarixiy qaror hududga yangi ish o‘rinlari ochadi, aholi farovonligini oshiradi, Qoraqalpog‘istondagi keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

va zarur hollarda evakuatsiya ishlarini tashkil qilishda ishtirok etishi mumkin.

Yurtimizda konsullik xizmatini modernizatsiya qilishga qaratilgan qator institutsional islohotlar o‘tkazildi. Diplomatik vakolatxonalarning moddiy-texnik imkoniyatlari kengaytirildi, raqamli konsullik xizmatlari joriy etildi, xorijdagi fuqarolar bilan aloqa mexanizmlari takomillashtirildi. Bu islohotlar, ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda tekzor harakatlanish imkoniyatini yaratish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

Yaqin Sharqdagi vaziyat keskinlashgan davrda aynan shu mexanizmlar ishga tushirildi. Diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari fuqarolar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot o‘rnatib, ularning joylashuvi va harakatlanishi imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar to‘pladi. Bu ma‘lumotlar evakuatsiya operatsiyasini rejalashtirish va amalga oshirish uchun muhim axborot bazasi vazifasini o‘tadi.

Evakuatsiya jarayonining muhim bosqichlaridan biri fuqarolarni to‘yxatga olish va ularning harakatlanishini muvofiqlashtirishdir. Mintaqada turli shaharlarda bo‘lib turgan fuqarolarni bir nuqtaga jamlash, ularning hujjatlari va transport imkoniyatlarini aniqlash hamda xavfsiz marshrutlarni belgilash kabi masalalar katta tashkiliy ishlarni talab qiladi. Bu jarayonda konsullik muassasalari asosiy muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘in vazifasini bajardi. Umuman olganda, mazkur evakuatsiya jarayoni mamlakatimiz tashqi siyosatida so‘nggi yillarda shakllangan insonparvarlik tamoyillari va pragmatik diplomatiya modelining amaliy samarasini ko‘rsatdi. Davlatning o‘z fuqarolari xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan bunday harakatlari jamiyatning davlatga ishonchini mustahkamlaydi, xalqaro maydonda mamlakat obro‘sin oshiradi va milliy diplomatiya institutining nufuzini kuchaytiradi.

Globalashuv sharoitida odamlarning xalqaro harakatlanishi ortib borayotgan bir paytda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash masalasi kelgusida ham davlat siyosatida muhim o‘rin tutadi. Shu bois, konsullik xizmatlari imkoniyatini yanada kengaytirish, diplomatik vakolatxonalarni tarmog‘ini rivojlantirish va favqulodda vaziyatlarda tekzor harakatlanish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Yaqin Sharq davlatlaridan yurtdoshlarimizni evakuatsiya qilish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar mamlakatimizda fuqarolar xavfsizligi va manfaatlarini ta‘minlash davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etayotganini yana bir bor tasdiqladi. Bu jarayon davlat va fuqaro o‘rtasidagi ishonchini mustahkamlash, diplomatik institutlar samaradorligini oshirish va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish nuqtayi nazaridan ham muhim.

RIVOJLANISH BARCHAGA DAXLDOR BO'LGANDAGINA UMUMMILLIY YUTUQQA AYLANADI



Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Boshqaruv sifati — hal qiluvchi omil

Yig'ilishda bildirilgan fikrlardan anglashiladiki, masala faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda emas. Endi e'tibor markazida boshqaruv sifati turibdi. Har bir vazir, hokim va tarmoq rahbari sohasiga yangicha yondashuv olib kirishi, resurslardan samarali foydalanishi, an'anaviy eksport bozorlariga bog'lanib qolmay, yangi yo'nalishlar ochishi kerakligi alohida ta'kidlandi. Bu talab tasodifiy emas. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda resurs yetarli bo'lishi muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Muhimi — resursdan qanday foydalanish. Boshqaruv eski uslubda qolsa, hatto katta investitsiya ham kutilgan samarani bermaydi. Aksincha, to'g'ri tashkil etilgan tizim kam imkoniyat bilan yuqori natija bera oladi.

Raqamlashtirish va sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish, innovatsiyalar kiritish, startap klublar orqali yoshlarni iqtisodiy jarayonlarga qo'shish vazifasi qo'yilishi iqtisodiyotni kelajakka moslashtirish harakatidir. Chunki global raqobat endi arzon xomashyo yoki arzon ishchi kuchi orqali emas, balki bilim va texnologiya orqali kechmoqda. Agar iqtisodiyot innovatsiyani qabul qilmasa, u tashqi bozorlarda pozitsiyasini yo'qota boshlaydi.

Strategik korxonalar samaradorligi alohida muhokama qilingani bejiz emas. Yirik korxonalar iqtisodiyot ustunidir. Agar ularda xarajatlar ortiqcha, logistika samarasiz, xarid tizimi shaffof bo'lmasa, bu butun iqtisodiy zanjirga ta'sir qiladi.

Milliy investitsiya jamg'armasini boshqarishga jalb etilgan “Franklin Templeton” kompaniyasi tahlillarida korporativ madaniyat, logistika, raqamlashtirish va energiya samaradorligi bo'yicha katta xazinalar mavjudligi qayd etilgani shuni ko'rsatadiki, muammo resurs yetishmasligida emas, tizim samaradorligida. 19 ta strategik korxonaga tannarxni 10-15 foiz qisqartirish vazifasi qo'yilgani esa jiddiy signal. Bu raqamlar oddiy ko'rsatkich emas, raqobatbardoshlik masalasidir.

Muhim jihat shundaki, iqtisod qilish ishlab chiqarishni qisqartirish orqali emas, balki tannarxni kamaytirish orqali ta'minlanishi shartligi ta'kidlandi. Bu prinsipial yondashuv. Chunki ishlab chiqarishni qisqartirish qisqa muddatli oson yechim bo'lishi mumkin, ammo u o'sishni sekinlashtiradi. Tannarxni tushirish samaradorlikni oshirishni talab qiladi. Bu esa tizimni isloh qilish demak.

Strategik korxonalarni “Yagona g'aznachilik” axborot tizimiga ulash va xaridlarni risk-tahlil asosida toifalash tashabbusi ham moliyaviy intizomni kuchaytirishga qaratilgan. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda har bir ortiqcha xarajat yo'qotilgan imkoniyatdir.

Hududiy sanoat masalasida bildirilgan tanaqdilar esa yana bir muhim nuqtani ochib beradi. Respublika sanoati uch yilda 21 foiz o'sgan bo'lsa-da, ayrim tumanlarda o'sish 10 foizga ham yetmagan. Bu nomutanossilik tizimdagi ichki farqlarni ko'rsatadi. Kredit va investitsiyalar o'sishi sanoat o'sishiga to'liq ta'sir ko'rsatmayotgani mablag'ning o'zi yetarli emasligini anglatadi. Muhimi, uning yo'naltirilishi va nazorati.

Respublika sanoatini kamida 8,5 foiz oshirish bo'yicha tarmoqbay va hududbay rejalar tasdiqlanishi, birinchi chorak yakunlariga qarab rahbarlar faoliyatiga baho berilishi natija uchun javobgarlik mexanizmini kuchaytirishdir. Iqtisodiyotda intizom bo'lmasa, strategiya ishlaymaydi.

Bu choralar iqtisodiy o'sish endilikda faqat hajm emas, boshqaruv sifati masalasiga aylanmoqda. Agar boshqaruv yangilansa, tizim shaffof va samarali bo'lsa, mavjud resursning o'ziyoq yuqori o'sish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

2026-yil uchun 6,6 foizli ehtiyotkor prognoz belgilash ham real vaziyatni hisobga olgan yondashuv. Bugungi noaniq geosiyosiy muhitda

haddan tashqari optimistik rejalar xavfli bo'lishi mumkin. Iqtisodiyotda eng nozik chiziqli o'sish va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatdir. Tezlik ortishi mumkin, ammo muvozanat yo'qolsa, tizim izdan chiqadi.

Qiymat uchun kurash

Yig'ilishda avtomobilsozlik sohasi alohida tilga olindi. Yurtimizda yiliga 650 ming dona avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega 4 ta yirik korxona mavjud. Bu yil ishlab chiqarishni 510 mingga yetkazish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, 300 dan ziyod mahalliy korxona bilan kooperatsiya asosida yana 763 ta detalni mahalliy ishlab chiqarish rejalashtirilmog'.

Bu raqamlar shunchaki sanoat statistikasi emas. Avtomobilsozlik — ko'p tarmoqli zanjir. U metallurgiya, kimyo, elektronika, logistika va xizmatlar sohasini birlashtiradi. Demak, bu yerda gap faqat avtomobil soni emas, balki butun sanoat ekotizimi haqida bormoqda. Agar detallar mahalliylashsa, qo'shilgan qiymat mamlakat ichida qoladi. Agar kooperatsiya chuqurlashsa, kichik va o'rta biznes sanoat zanjiriga bog'lanadi. Shu nuqtayi nazardan, 763 ta yangi detal bu — importni qisqartirish emas, iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash qadami.

Aholi talabini rag'batlantirish uchun avtokredit stavkalarini pasaytirish va hajmini oshirish vazifasi qo'yildi. Bu yerda nozik muvozanat bor. Talabni sun'iy rag'batlantirish qisqa muddatda ishlab chiqarishni oshirishi mumkin. Lekin moliyaviy barqarorlikni hisobga olmasdan qilingan qadam inflyatsiya yoki qarz yuki ortishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun kredit siyosati real daromadlar dinamikasi va bozor imkoniyatlari bilan uyg'un bo'lishi shart. Iqtisodiyotda talab va taklif muvozanati buzilsa, o'sish barqaror bo'lmaydi.

Yig'ilishda investitsiya siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqish masalasi o'rtaga tashlandi. Joriy yil 50 milliard dollar xorijiy investitsiya



muammolar sabab kechikkani qayd etildi. Bu raqam tizimdagi boshqaruv nuqsonlarini ko'rsatadi. 165 milliard dollarlik 377 ta strategik loyihani alohida nazoratga olish rejasiga shundan xulosa chiqarilganini anglatadi. Chunki katta investitsiya — katta mas'uliyat.

Umuman olganda, bu ko'rsatmalar bir narsani anglatadi: iqtisodiy siyosat endi “ko'proq jalb qilish” emas, “to'g'ri yo'naltirish” bosqichiga o'tmoqda. Sanoat va investitsiya masalasida asosiy kurash hajm uchun emas, qo'shilgan qiymat uchun kechadi. Qiymat mamlakat ichida yaratilsa va tashqi bozorga chiqsa, o'sish



jalb qilish rejasiga belgilab qo'yildi. Lekin bu yerda eng muhim jihat miqdor emas, sifat. Yangi loyihalar, birinchi navbatda, yuqori qo'shilgan qiymatli, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishi, resurslardan samarali foydalanishi va yuqori daromadli ish o'rnlari yaratishi kerakligi ta'kidlandi.

Bu yondashuv investitsiyaga qarash o'zgarayotganini ko'rsatadi. Ilgari investitsiya hajmi asosiy ko'rsatkich bo'lgan, endi esa uning iqtisodiyotga qancha qiymat qo'shayotgani hal qiluvchi mezonga aylanmoqda. Chunki past qo'shilgan qiymatli loyihalar ko'p ish o'rni yaratishi mumkin, ammo uzoq muddatda raqobatbardoshlikni ta'minlamaydi.

Vazirlar va hokimlardan har bir loyiha uchun bozori, eksporti, qo'shilgan qiymati va yaratadigan ish o'rnlari bo'yicha chuqur tahlil talab qilinishi ham shu nuqtayi nazardan muhim. Investitsiya qurilishni boshlash emas, balki mahsulotni bozorga olib chiqishdir. Loyiha ishga tushdi degani, u iqtisodiyot uchun qiymat yaratdi degani emas. Qiymat mahsulot sotilganda, eksport qilganda va daromad keltirganda yuzaga chiqadi.

Shu maqsadda “Yagona milliy loyiha boshqaruvi” platformasini joriy etish rejasini bildirildi. Loyihani ishga tushgandan keyin uch yil davomida monitoring qilish mexanizmi mas'uliyatni chuqurlashtirishdir. Chunki ko'p hollarda muammo loyihani boshlashda emas, uning barqaror ishlashini ta'minlashda yuzaga chiqadi. Nazorat tizimi bo'lmasa, investitsiya raqamda qolib ketishi mumkin.

O'tgan yili 55 ta yirik loyiha tashkiliy

barqaror bo'ladi. Agar u faqat raqamda qolsa, samara vaqtinchalik bo'lib qoladi.

Kelishuvlar geografiyasi va ichki iqtisodiy intizom

Yig'ilishda xorijiy tashriflar doirasida 135 milliard dollarlik kelishuvlarga erishilgani ma'lum qilindi. Joriy yilning o'zida Turkiya bilan 9 milliard, Pokiston bilan 1 milliard 428 million dollarlik investitsiya bitimlari imzolanganini qayd etildi.

Tashqi sheriiklar geografiyasi kengayishi iqtisodiy diversifikatsiya belgisi. Bu bir yoki ikki bozorga bog'lanib qolmaslik, xavflarni taqsimlash imkonini beradi. Lekin tashqi kapital oqimi ichki muhitga moslashmasa, u kutilgan samarani bermaydi. Investitsiyani jalb qilishdan ko'ra, uni o'zlashtirish qiyinroq. Chunki bu yerda yer ajratishdan tortib, infratuzilma, kadrlar tayyorlash va moliyaviy shaffoflikka bo'lgan zanjir ishlashi shart.

Investitsiya ko'payishi hisobiga qurilish hajmini 400 trillion so'mga yetkazish va sohada kamida 17 foiz o'sishni ta'minlash vazifasi qo'yilgani ham shu jarayonning mantiqiy davomidir. Qurilish — iqtisodiyotda multiplikativ ta'sirga ega tarmoq. U sementdan tortib, metallurgiya, elektrotexnika va transport xizmatlarigacha bo'lgan sohalarini harakatga keltiradi. Shu ma'noda, budjetdan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi uchun ajratilayotgan 40 trillion so'm faqat xarajat emas, balki ichki bozorni rag'batlantiruvchi omil.

Biroq qurilish hajmini oshirishning o'zi yetarli emas. Sifat, shaffoflik va samaradorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, hududlardagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari nazoratini kuchaytirish, ayrim hududlarda xususiy sektorni jalb qilish tashabbusi raqobat va javobgarlik muhitini kengaytirishga qaratilgan. Davlat buyurtmasi katta bozor, lekin u samarali boshqarilmasa, resurs isrofiga aylanishi mumkin.

Energiya tejamkorligi va mahalliy mahsulot siyosati

Energiya samaradorligi bo'yicha berilgan ko'rsatmalar esa iqtisodiy sifatlari oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishdir. Kichik va o'rta korxonalar energiya iste'moli katta ulushni tashkil etishi hisobga olinib, ular uchun alohida tizim joriy etish va uch yillik dastur ishlab chiqish belgilangani muhim qadam. 2026-yilda 100 million kub metr gaz va 500 million kilovatt-soat elektrni tejash rejasiga o'zgarishlar kiritilmoqda. Boisi, energiya tejash — ishlab chiqarishni qisqartirish emas, balki samaradorlikni oshirish. Agar korxona kamroq energiya sarflab, xuddi shu hajmda yoki undan ko'proq mahsulot ishlab chiqara olsa, uning tannarxi pasayadi, raqobatbardoshligi ortadi. Demak, energiya siyosati sanoat siyosati bilan uzviy bog'liq.

Umuman olganda, bu qarorlar bir jihatni ko'rsatadi: iqtisodiy o'sish endilikda faqat hajm ortishi bilan emas, resurslardan oqilona foydalanish bilan baholalanmoqda. Tashqi kelishuvlar geografiyani kengaytirsa, ichki intizom barqarorlikni ta'minlaydi. Iqtisodiyotning mustahkamligi aynan shu ikki omil — tashqi ochiqlik va ichki samaradorlik o'rtasidagi muvozanatga bog'liq.

Respublikamizdagi 917 mingga yoritish chirog'ining yiliga 330 million kilovatt-soat elektr sarflayotgani, kunduz kuni ham yoniqliq qolish holatlari uchrayotgani qayd etildi. Bu raqamlar faqat statistika emas, u iqtisodiy energiyaning samarasiz sarflanishi va texnologiyalarning qo'llanishini ko'rsatadi. Energiya iqtisodiyotida har bir kilovatt hisoblanadi, chunki u iste'molchilardan to strategik korxonalargacha har bir sohada xarajatlarni belgilaydi.

Mas'ul tashkilotlarga yoritish ustunlariga kichik quyosh paneli, batareya va kun yorishishiga qarab o'zi o'chib-yonadigan datchik o'rnatish topshirildi. Bu qarash oddiy “tejavah” chorasi emas, balki iqtisodiyotda texnologik transformatsiyaning namunasidir: har bir resursdan oqilona foydalanish, samaradorlik va barqarorlikka intilish. Shuningdek, bunday yangicha yondashuv shahar muhitida ham ijtimoiy va ekologik samarani oshiradi, chunki energiya tejash faqat iqtisodiy ko'rsatkich emas, ekologik mas'uliyatning belgisi hamdir.

Mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish masalasi alohida muhokama qilindi. Qayd etilganidek, davlat xaridlarining umumiy hajmi 300 trillion so'm bo'lib, unda mahalliy mahsulotlar ulushi 68 foizga yetgan. Tadbirkorlar tomonidan esa byurokratiya va eski qarashlar — “chet elniki sifatliroq” fikri hanuz saqlanishi aytib o'tildi. Bu esa ichki bozorda samarador raqobatni cheklaydi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga to'siq bo'ladi.

Yig'ilishda vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlarga topshiriqli berildi: har bir loyiha, tender, qurilish va xomashyo ta'minoti bosqichlarida mahalliy mahsulot ulushini

oshirish uchun shaxsan javobgarlik olish. Bu yondashuv shunchaki ko'rsatkichlarga erishish emas, balki davlat xaridlarini iqtisodiy va strategik instrument sifatida samarali qo'llash demakdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, energiya samaradorligi va mahalliy mahsulot siyosati — iqtisodiy barqarorlikning ikki tomoni. Biri resurslarni tejaydi, ikkinchisi ichki bozorni mustahkamlaydi. Agar bu ikki mexanizm uyg'unlashsa, iqtisodiy o'sish faqat hajmda emas, sifatida ham namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishni tashqi bozorlar hisobiga ta'minlash masalasi alohida yo'nalish sifatida ko'rildi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “ichki bozordagi talabning o'zi bilan yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlab bo'lmaydi”. Chunki ichki talab bir nuqtada cheklanadi, undan ortiq esa strategik o'sishni ta'minlamaydi. Shu bois, yangi mahsulotlar va yangi bozorlar — iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi drayveri hisoblanadi.

O'tgan yili eksport 22 foiz o'sib, 24 milliard dollarga yetgan bo'lsa-da, ko'p rahbarlar eski ish uslubidan voz kecha olmayotgani misollar bilan ko'rsatildi. Bu iqtisodiy tajribaning ikki tomonini ochib beradi: bir tomondan, ko'rsatkichlar o'sishi samarali; ikkinchi tomondan, yangi texnologiya va bozor strategiyalari qo'llanilmasa, yuqori o'sish barqaror bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, endilikda eksport talabi faqat hajm emas, yangi mahsulot va yangi bozorlarga ham bog'langan. Bu iqtisodiyotda sifat va hajmning uyg'unligi, barqaror o'sishning shartidir.



Ichki bozorni barqarorlashtirish alohida muhim vazifa. Yanvar oyida yillik inflyatsiya 7,2 foizni tashkil etgani, uning 45 foizi oziq-ovqat mahsulotlari hisobiga, ayniqsa, 13 foiz go'sht narxi orqali shakllangan qayd etildi. Bu raqamlar inflyatsiya ham iqtisodiy siyosatga bog'liq jarayon ekanini ko'rsatadi. Shu bois, tarmoq bozorlari hamda mehnat unumdorligi markaziga ichki va tashqi xatarlarni oldindan aniqlash, tuman va shahar bozorlarini har hafta tahlil qilish, talab prognozini shakllantirish, har chorakda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari balansini ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tashqi bozorlarni kengaytirish va ichki narx

barqarorligini ta'minlash iqtisodiy o'sishning bir-biriga bog'liq ikki ustunidir. Agar eksportda yangi strategiyalar yo'lga qo'yilsa va ichki bozorda tartib saqlansa, iqtisodiy rivojlanish barqaror bo'ladi.

Narx barqarorligi va daromad

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi sohasi alohida e'tiborga olindi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ichki narx barqarorligi va aholi daromadlarini ta'minlashga qishloq xo'jaligi strategik ahamiyatga ega. Narxlarning keskin ko'tarilishi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qilib, ijtimoiy barqarorlik va aholi ishonchini ham sinaydi.

Go'shtda importga qaramlikni qisqartirish uchun oziq-ovqat bazasini mustahkamlash masalasi alohida tilga olindi. Muborak tumanida 5 ming gektar yer foydalanishga kiritilib, makkajo'xori ekish boshlangani namuna sifatida keltirildi. Joriy yilda esa qo'shimcha 60 ming gektarda shu ishlar tashkil etilishi lozimligi ko'rsatildi. Bu orqali qo'shimcha 350 ming chorva uchun kafolatlangan oziq-ovqat bazasi yaratiladi.

Bu jarayon faqat ekin maydonini kengaytirish emas, balki iqtisodiy barqarorlik poydevorini mustahkamlashga qaratilgan harakatdir. Qishloq xo'jaligi sohasida har bir gektar, har bir tonna mahsulot faqatgina hosil emas, u orqali aholi daromadi va importni qisqartirish imkoniyati ham yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat bazasini kengaytirish ichki iqtisodiyot, narx va ta'minot muvozanatini qurishni ta'minlaydigan instrumentdir.

Shuningdek, kartoshka mahsuloti misoli ham ahamiyatlidir. O'tgan yili 772 ming tonna kartoshka import qilingan bo'lsa, joriy yilda 4,5 million tonna hosil olish vazifasi qo'yildi. Bu importga qaramlikni qisqartirish, ichki bozorda narxlarni barqarorlashtirish va aholiga arzon mahsulot taqdim etishga qaratilgan kompleks choradir.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimiz iqtisodiy siyosati endi faqat hajm va ko'rsatkichlarni oshirishga emas, tizimni barqarorlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan strategik yo'nalishga o'tmoqda. Yig'ilishda ta'kidlaganidek, iqtisodiy o'sishning sifati va davomiyligi boshqaruvning samaradorligiga, ichki va tashqi bozorlardagi muvozanatga, energiya va mehnat unumdorligiga bog'liq. Tashqi investitsiyalar va yangi bozorlar iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlasa, ichki narx barqarorlik, mahalliy mahsulotlar ulushi va energiya samaradorligi barqaror o'sishning mustahkam poydevorini yaratadi.

Qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohasidagi strategik choralar ko'rsatadiki, iqtisodiyot nafaqat ko'proq ishlab chiqarishni, balki har bir resursdan maksimal qiymat olishni maqsad qiladi. Mahalliyashtirish,

energiya tejash, raqamlashtirish va innovatsiyalar joriy etilishi iqtisodiy tizimning samaradorligini oshiradi, tashqi bozorlar bilan raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlaydi.

Shu bois, mamlakatning iqtisodiy o'sishi endilikda oddiy statistika emas, balki strategik ong va tizimli muvozanat natijasidir. Barqaror iqtisodiyot yalpi ichki mahsulot hajmi, resurslardan oqilona foydalanish, sifatli boshqaruv va uzoq muddatli barqarorlikning birlashgan ifodasidir. Umuman olganda, kelajakdagi iqtisodiy muvaffaqiyatlar eksportni kengaytirish va ichki bozorni tartibga solish, samarali boshqaruv, innovatsiyalar va qo'shilgan qiymat yaratish orqali shakllanadi.



Taraddud



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

O'ZGARAYOTGAN DEHQONCHILIK MADANIYATI

YERGA EGALIK HUQUQI MEHNAT VA MAS'ULIYAT BILAN CHAMBARCHAS BOG'LIQ



Ziyodbek YO'LDOSHEV, Toshkent viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

So'nggi yillarda dunyoda kuzatilayotgan ayrim voqealar aynan shu haqiqatni yanada yaqqol ko'rsatmoqda. Ba'zi davlatlar ichki bozorni himoya qilish maqsadida eksport cheklavlarini joriy etmoqda, boshqalari esa mahsulot yetishtirish hajmini o'z ichki ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tartibga solmoqda. Bunday holatlar esa oziq-ovqat masalasida tashqi bozorlarga ortiqcha tayyanish qanchalik xavfli ekanini ko'rsatadi. Shu bois, har bir davlat o'z imkoniyatlari ishga solib oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga intiladi.

Bunday sharoitda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, tomorqadan samarali foydalanish va har bir qarich yerning hisobini olish alohida ahamiyat kasb etadi. Bejiz "Yer — elning boyligi" degan naql xalqimiz orasida asrlar davomida yashab kelayotgani yo'q. Yer inson mehnati bilan uyg'unlashgandagina boylikka aylanadi. U oila farovonligiga boylikka aylanadi. U oila farovonligiga boylikka aylanadi. U oila farovonligiga boylikka aylanadi.

Bunday sharoitda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, tomorqadan samarali foydalanish va har bir qarich yerning hisobini olish alohida ahamiyat kasb etadi. Bejiz "Yer — elning boyligi" degan naql xalqimiz orasida asrlar davomida yashab kelayotgani yo'q. Yer inson mehnati bilan uyg'unlashgandagina boylikka aylanadi. U oila farovonligiga boylikka aylanadi. U oila farovonligiga boylikka aylanadi. U oila farovonligiga boylikka aylanadi.

Bu jarayon, o'z navbatida, qishloq aholisi daromadini oshirish, yangi ish o'rinlari ochish va kambag'allikni qisqartirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tomorqa madaniyatining shakllanishi esa mehnatga munosabatni ham o'zgartirmoqda. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini izchil rivojlantirish, aholi tomorqalaridan unumli

foydalanish, yangi daromad manbalarini yaratish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda aholini qo'llab-quvvatlash, fermer va dehqonlar faoliyatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada yerdan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligida zamonaviy texnikalarni qo'llash imkoniyati kengayib bormoqda.

Yerga mehnat va bilim bilan yondashish farovonlikka eltuvchi yo'ldir. Bu borada yurtimizda qilinayotgan ishlar aniq natijalarga qaratilgan. Jumladan, 2026-yilda birgina Toshkent viloyatining 883 mahallasidagi aholiga tegishli 32 ming 315 gektar tomorqa hamda 19 ming 736 gektar dehqon xo'jaliklariga ijaraqa berilgan yer maydonida bahorgi ekinlar ekish rejalashtirilgan. Bu orqali yuqori daromadli, eksportbor va bozor talabiga mos mahsulotlar yetishtirish ko'zda tutilmoqda. Ushbu sa'y-harakat minglab oilalarning daromadini oshirish, qishloq aholisining bandligi va ichki bozorni sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda aholini qo'llab-quvvatlash, fermer va dehqonlarni har tomonlama rag'batlantirish hamda qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish maqsadida keng qamrovli imtiyoz va subsidiyalari tizimi joriy etilmoqda. Bu tashabbuslar orqali har bir oila o'z mehnati samarasini ko'rish, yerdan unumli foydalanish va barqaror daromad manbaiga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Aslida, bu faqat iqtisodiy qo'llab-quvvatlov bilan cheklanmaydi. U qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, bandlikni ta'minlash va jamiyatda mehnatga munosabatni mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy jarayondir.

Masalan, namunaviy va innovatsion loyihalar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha grantlar ajratilishi yerdan samarali foydalanishga qaratilgan ilg'or g'oyalarni qo'llab-quvvatlash imkonini



beradi. Bunday moliyaviy ko'mak fermer va dehqonlarning yangi texnologiyalar va samarali ish uslublarini sinab ko'rishi, agrar sohada innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishiga sharoit yaratadi.

Shuningdek, tajribali dehqonlarni rag'batlantirish maqsadida 2 million so'mdan 75 million so'mgacha subsidiya ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bu esa ularning amaliy tajribasini yanada kengaytirish, yerdan unumli foydalanishga qaratilgan samarali usullarni hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Chunki qishloq xo'jaligida muvaffaqiyat faqat yerga egalik qilish bilan emas, balki bilim, tajriba va mehnatni uyg'unlashtirish bilan belgilanadi.

Qisqa muddatli o'quv kurslari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravarigacha mablag' ajratilishi ham fermer va dehqonlar malakasini oshirishga qaratilgan muhim choralar. Chunki yer bilan ishlash doimiy bilim va tajriba talab qiladi. Agar unga faqat resurs sifatida qaralsa, yerning imkoniyatlari to'liq ochilmaydi. Yerga bilim va mas'uliyat



bilan yondashilsa, haqiqiy boylik manbaiga aylanadi.

Qishloq xo'jaligida suv ta'minoti masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois, vertikal sug'orish quduqlari xarajatining to'liq qoplanishi, quduq burg'ilash hamda quyosh panellari o'rnatish chiqimining 70 foizgacha qismi subsidiya qilinishi fermer va dehqonlar uchun muhim imkoniyatlar ochmoqda. Bu orqali yerdan samarali foydalanish, sug'orish tizimlarini takomillashtirish va qishloq xo'jaligida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish mumkin.

Uzumchilik, bog'dorchilik va tomchilatib sug'orish tizimlarini tatbiq etish uchun moliyaviy ko'mak ajratilishi ham agrar soha modernizatsiyasiga xizmat qiladi. Bu kabi choralar yerdan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish, yuqori hosildorlikka erishish va qishloq aholisi daromadini oshirishga qaratilgan. Qolaversa, 7 yilgacha imtiyozli kreditlar va 5 yilgacha lizing asosida zamonaviy texnika hamda uskunalar ajratilishi fermer va dehqonlar faoliyatini yanada kengaytiradi.

Imkoniyatlar bilan birga mas'uliyat ham ortmoqda. Tomorqa va ijara yerlaridan samarali foydalanish ustidan har chorakda monitoring o'tkazilishi shundan dalolat beradi. Yer maydonlari qarovsiz qoldirilsa, imtiyozlar bekor qilinishi, kredit mablag'i ajratilmasligi yoki soliq miqdori oshirilishi mumkin. Bu holat barcha fuqaroga bir haqiqatni eslatadi: yerga egalik qilish huquqi mehnat va mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq.

Har bir oila o'z tomorqasidan va berilgan yerdan unumli foydalanishga intilishi, yer bilan ishlash madaniyatini shakllantirishi zarur. Shu ma'noda, yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish har bir fuqaroning burchi hamdir. Ana shundagina yerning qiymati namoyon bo'ladi, oilalar farovonligi oshadi va mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish mumkin.

YANGI O'ZBEKISTON



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Dehqonchilik, azaliy kasb-kor. Ammo bir qarashda jo'n tuyuladigan bu ishni hamma ham uddalay olmaydi. U, avvalo, bilim, sabr-bardosh, uzluksiz mehnat talab etadigan yumushlar sirasiga kiradi. Chunki bu yo'lda samarali mehnat qilayotgan usta dehqonlar vaqtning qadriga yetadi, undan unumli, maqsadli foydalanish yo'llarini izlaydi.

SANOATLASHAYOTGAN TARMOQ

Bu xususida so'z aytganda, farg'onalik tomorqachilarning amaliy ish tajribasi e'tiborga molik. Keyingi yillarda tomorqadan bir necha bor hosil olish va mo'may daromadga ega bo'lish borasida yangi ish tajribalari hayotga tatbiq etilmoqda. Katta-kichik gap-gashtaklarda subhat mavzusi, albatta, dehqonchilik, tomorqachilikdan mo'l daromad olish, oila farovonligi, hududlar obodligi haqida bo'ladi, tajriba almashiladi.

Dehqonchilikda innovatsiyalarni joriy etish borasidagi yutuqlar salmog'i yildan yilga ortib bormoqda. Natijada mahallalardagi pastqam, paxsa devorli uylar o'rinda zamonaviy me'morchilik andozalari bilan uyg'unlashgan, shinam xonadonlar bo'y ko'rsatmoqda. Deyarli har bir oila zamonaviy avtomashinaga ega bo'lyapti.

Farg'ona tumani "Farg'ona" mahalla fuqarolar yig'inida bu borada ko'plab ibratli ishlar qilinmoqda. Hududdagi

kimyoviy o'g'it, zarur anjomlar yetkazib berish singari qo'shimcha xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

— Saksondan ortiq xonadon tomorqasidagi issiqxonalarda bodring, pomidor, qalpamir va boshqa sitrus mevalar yetishtiriladi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Ulug'bek Ibrohimov. — O'tgan yili issiqxona qurish istagini bildirgan tashabbuskor 10 kishiga 200 million so'mlik kredit berildi. Buning hisobiga 20 dan ortiq odamning bandligi ta'minlab, doimiy daromadga ega bo'ldi. Joriy yilda yana 30 xonadonda issiqxonalar tashkil etish yuzasidan mikroloiyahalar ishlab chiqildi.

Issiqxona sharoitida yuqori hosil olish uchun o'simliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish, fitosanitar talablarga amal qilish juda muhim. O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan "Dolzab 30 kunlik" tadbiri e'lon qilindi. Uning doirasida "Karantin xizmati — dehqonga ko'makchi" shiori ostida hududlardagi issiqxonalarida zararli organizmlarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini ko'rilmogda.



810 ta xonadon egalari tomorqachilikni barqaror daromad manbai deb biladi. Bu yerda qish faslida ham bodring, pomidor, qalpamir yetishtirish ommalashgan. Jumladan, Alisher Akbarov adirlarda issiqxona tashkil qilish borasida tajriba to'plagan dehqonlardir. U 50 sotix yerda bodring, 1 gektar yerda qalpamir parvarishlab keladi.

— Mavsumda 25 tonna bodring, 20 tonnadon ziyod qalpamir hosili olamiz, — deydi dehqon.

— Keyingi yillarda issiqxonalar faoliyatini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashga e'tibor oshdi. Energiya ta'minoti, soliq sohasidagi imtiyozlar ham faoliyatimiz samarali bo'lishida o'ziga xos tayanch vazifasini o'tayapti. Mahalliy bozordan tashqari Yevropaga ham mahsulot yetkazib berishni ko'zlayamiz. Buning uchun imkoniyatlar yetarli. Hozirda Niderlandiyadan olib kelingan bodring navlarini mahalliy sharoitda sinovdan o'tkazaymiz. Natija kutilganidek. Yangi navlar ilim sharoitimizga mos keldi. Hosildorligi yuqori. Bundan tashqari, tabiiy biologik qo'shimchalar bilan boyitilgan ekologik toza organik sabzavotlar yetishtirish ustida ishlayapmiz.

Mahalla fuqarolar yig'inida bunday innovatsion g'oyalarni targ'ib etish, ilg'or tajribalarni ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Aholiga dehqonchilik madaniyatini oshirish, tomorqadan unumli foydalanish uchun ko'maklashilmoqda. Sara urug', mahalliy va

— Karantin inspektorlari joylarga borib, sayyor, mobil laboratoriyasi orqali agroklaster, fermer va dehqon xo'jaliklari hamda aholi tomorqalaridagi issiqxonalarda fitosanitariya holatini nazorat qilyapti, — deydi Farg'ona tumani fitosanitariya laboratoriyasi mudiri Abduravf Maqsudov. — Asosiy maqsad issiqxonada yetishtirilayotgan sabzavot va sitrus ekinlarni zararli hasharotlardan himoyalash va ularga qarshi kurashish yuzasidan issiqxona egalariiga kerakli tavsiya, tushunchalar berishdir. Bu amaliy chora-tadbirlar fitosanitariya jihatidan toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini va sifatini oshirish, eksport miqdorini ko'paytirish imkonini beradi.

Farg'ona viloyatidagi 260 gektardan ortiq maydonda sanoatlashgan zamonaviy issiqxonalar tashkil etilgan. Ularda nafakat yerdan unumli foydalanish, balki yil davomida bozorgir sabzavot mahsulotlarini yetishtirish mumkin. Mazkur issiqxonalar maydonining katta qismi aniq ixtisoslashuv asosida faoliyat yuritayotgani iqtisodiy barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qilayotir. Ayni kunlarda innovatsion loyihalar asosida 86 gektar yerda pomidor, 24 gektarda bodring, 4 gektarda bulg'ori va achchiq qalpamir yetishtirilyapti.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Islom moliyasi:

INVESTITSIYA OQIMI YANADA KO'PAYADI

Kundalik hayotimizdagi o'zaro munosabatlarning bir qismi pul, moliyaviy oldi-berdilar bilan bog'liq. Inson qaysi sohada faoliyat yuritmasin, bevosita bu jarayonda qatnashadi. Islom dinida ham kundalik hayotda ko'p uchraydigan moliyaviy masalalarga alohida e'tibor qaratib kelinadi.

Islom moliyasi, oddiy qilib aytganda, shariat talablari doirasida faoliyat yuritiladigan moliyaviy tizimdir. Uning o'z talablari bor. Asosiy tamoyillaridan biri foiz hamda tavakkalchilikning taqiqlanishidir. O'z navbatida, islom moliya tizimi foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni nazarda tutishini aytib o'tish lozim. An'anaviy bank tizimidan farqli ravishda unda foyda sherikchilikka asoslanadi. Aytaylik, bank mijoz talabi hamda moliya mahsulotlari turiga qarab uning uskuna, tovar, xomashyo olib berishi yoki o'sha narsalarni ijara asosida taqdim etishi mumkin. Mazkur moliyalashtirish negizida savdo amaliyoti yotadi. Bu holatda bank bilan qarz oluvchi loyiha muvaffaqiyati va samaradorligida teng huquqli bo'lib, foydaga ham, zararga ham manfaatdor sheriklarga aylanadi.

Shu o'rinda islom moliyasiga taalluqli ayrim asosiy atamalar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Bunday so'zlardan biri — ribo, xalqona aytganda "sudxo'rlik". U tijoriy va moliyaviy muammolarda shariat ruxsat bermagan foiz yoki ortiqcha daromad undirishini anglatadi.

Ikkinchisi, mushoraka. "Sherikchilik qilish" ma'nosini bildiradi. Tijorat va savdo talqinida esa hamkorlarning olingan foyda va zararni baham ko'ruvchi sherikchiligi aytiladi.

Uchinchisi, muzoraba. Sherikchilikning maxsus turi bo'lib, unda bir tomon ikkinchi tomonning tijoratiga sarmoya kiritish bilan hamkorlik qiladi. Sarmoya kiritish "rabul mol" deb ataluvchi birinchi sherik tomonidan amalga oshirilisa, ish yuritish "muzorib" deb nomlanuvchi ikkinchi tomonning majburiyati bo'ladi.

Mushoraka va muzoraba quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: mushorakada sarmoya barcha sheriklar tomonidan kiritilsa, muzorabada faqat rabul molning vazifasi bo'ladi. Mushorakada barcha sheriklar ish boshqarish va yuritishda qatnashishi mumkin, ammo muzorabada biznes boshqaruvi faqat muzorib qo'lida bo'ladi hamda rabul molning bunga haqqi bo'lmaydi.

Mushorakada ko'rilgan zarar barcha sherik kiritgan sarmoyalarning ulushiga mutanosib ravishda bo'linadi. Muzorabada esa muzorib sarmoya kiritmagani tufayli zarar rabul mol zimmasida bo'ladi. Muzoribning ko'rgan zarari

uning qilgan mehnati foydasiz tugallangani bilan cheklanadi.

To'rtinchisi, murobaha. U fiqhiy tushuncha bo'lib, muayyan narsa-buyumni sotishda qo'llanadigan shartnomaga aytiladi. Moliyalashtirish faoliyatiga uning aloqasi yo'q. Sotuvchi muayyan mol tannarxining ustiga foyda ustamasini qo'yib xaridorga sotishni kelishsa, kifoya. Murobaha savdosining asosiy mohiyati shundaki, sotuvchi savdo molining tannarxini va qo'yilayotgan ustamani xaridorga ochiq-oydin bildiradi. Bundan tashqari, murobaha savdosida to'lov savdo bo'lishi bilan darhol amalga oshirilishi yoki tomonlar kelishuviga ko'ra kechiktirilishi mumkin.

Shariatda oldi-sotdi durust, ya'ni tartib-qoidalarga muvofiq bo'lishining asosiy talablaridan biri — savdo moli sotuvchining jismoniy yoki amalda tasarrufida bo'lmog'i lozimligi. Umumiy qoidalarga istisno tariqasida shariatda salam va istisno savdolariga ruxsat berilgan.

E'tiborlisi, islom moliyasining har jabhada foydali ekanini bugun rivojlangan G'arb davlatlari ham tan olmoqda. Misol sifatida keyingi yillarda Germaniya iqtisodiy qonunchiligi shar'iy moliya qoidalariga muvofiqlashtirilayotganini aytish mumkin.

Islomga tarixan aloqador bo'lmagan millatlar ham moliya tizimining ushbu shakli foydali



Xurshid ASATULLAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

ekanini tan olayotgan ekan, nega endi biz bunga intilmaylik?

Biroq har qanday yangilikni amalga tatbiq etish o'ziga yarasha qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab qilgani kabi islom moliyasini yurtimizga olib kirishda ayrim hal qilinishi zarur masalalarga duch kelishimizni oddiy holat sifatida qabul qilish kerak.

Darvoqe, hal qilinishi kerak bo'lgan eng asosiy masala mamlakatimiz qonunchiligi bilan bog'liq. Zero, mamlakatimizda aynan

islom iqtisodiyoti yoki islom banklari faoliyati va boshqa ko'rinishdagi harakatlarni tartibga solishga qaratilgan maxsus qonunchilik yetarli darajada shakllantirilmagan.

Mamlakatimizda islomiy moliyalashtirish ishlari 2004-yilda boshlangan, bu O'zbekistonning Islom taraqqiyot banki a'zoligiga qo'shilgani bilan bog'liq.

Bugun dunyo bo'yicha faoliyat yuritayotgan 300 dan ziyod islom bank va moliya muassasalarining yalpi aktiv 2,5 trillion dollardan oshib, bu ko'rsatkich yildan yilga o'smoqda. Shu ma'noda, musulmon davlatlardagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan tashkilotlar mablag'ini O'zbekiston iqtisodiyotiga, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlashga jalb etish ayni muddao ekanligini bildirmoqda. Buning uchun esa, avvalo, mamlakatimiz qonunchiligidagi bank tizimiga taalluqli hujjatdarni islom moliyasiga oid qo'shimcha bandlar bilan to'ldirish lozim. Shunda yurtimizda islomiy moliya tizimi tamoyillariga javob beradigan banklarni tashkil etish imkoniyati tug'iladi.

Bir qancha arab mamlakatlari sarmoyadorlari yurtimizda faoliyat yuritishni maqsad qilib, katta miqdordagi sarmoya kiritish istagini bildirgan. Bu loyihalarning amalga oshishiga yurtimizdagi qulay muhit, xususan, islomiy moliya tashkilotlarining mavjudligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan yetakchi arab dunyosi banklari O'zbekistonga kirs, islom moliyasi tartiblar mamlakatimizda ishlashiga ishonch hosil qilishi lozim. Bu boradagi ishonch esa og'zaki va dalal emas, balki qonuniy normal yordamida vujudga keladi. Shunday ekan, mamlakatimizga islomiy moliya tashkilotlarini jalb etish ishlarini zudlik bilan bajarish kerak.

Oliy Majlis Senatining o'n uchinchi yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank

faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ma'qullandi. Oliy Majlis Senat qo'mita raisi Erkin Gadoyevning qayd etishicha, mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliya xizmatlari ko'rsatilishi uchun huquqiy asos 2024-yil iyulda yaratilganiga qaramay, islomiy moliya xizmatlarini soliqqa tortish masalalari hal etilmagani (soliq neytralligi ta'minlanmagani) sababli mazkur xizmatlarning mikromoliya tashkilotlari kredit portfelidagi ulushi atigi 3,8 milliard so'mni yoki 0,04 foizni tashkil etmoqda.

Shundan kelib chiqib, qonun bilan islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslari va banklar tomonidan islomiy moliya xizmatlari ko'rsatilishi tartibi belgilanmoqda.

Rejaga muvofiq, 2027-yilda bitta tijorat banki islom moliyasi mahsulotlarini taklif qila boshlaydi. 2029-2030-yillarga borib kamida uchta bank islom moliyasi talablariga muvofiq xizmatlar ko'rsatishi rejalashtirilgan. Moliyalashtirish davlat subsidiyalari hisobidan emas, balki banklarning o'z mablag'i asosida amalga oshiriladi.

Markaziy bank hisob-kitoblariga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekistonda 10 tagacha islom banki faoliyat yuritishi mumkin. Shu bilan birga, qator an'anaviy banklar, jumladan, uchta davlat banki mavjud mahsulotlariga qo'shimcha ravishda islom oynalarini joriy etishi kutilmoqda.

Islom moliyasi uchun aniq va tushunarli tartibga solish tizimi O'zbekistonni ko'rfa davlatlari, Malayziya va boshqa islom moliyasi markazlari uchun yanada jozibador qiladi. Investitsiyalar oqimining kengayishiga zamin hozirlaydi. Qolaversa, islom moliyasi mamlakat moliya tizimining qo'shimcha ustuniga aylanib, inklyuziv o'sish va uzoq muddatli investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Fikr



Yoshlarga oid davlat siyosati — amalda

VAZIFAMIZ — YUQORI MALAKALI
MUHANDISLAR TAYYORLASH

Kamolxon KARIMOV,
Toshkent davlat texnika
universiteti huzuridagi ilmiy
darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bugun esa ilm-fan yo‘liga kirib, ilmiy izlanishlar qilayotgan yoshlarimiz yo‘liga hech kim g‘ov bo‘lolmaydi, aksincha, ular uchun alohida imtiyoz, rag‘bat va ko‘plab imkoniyatlar muhayyo. Jumladan, Prezidentimiz ilk bor BMT Bosh Assambleyasi minbarida turib yoshlar siyosati masalasini ko‘tarib chiqqani va bu tashabbus jahon hamjamiyati tomonidan katta e’tirofga sazovor bo‘lganini ta’kidlash kerak. Joriy yil Toshkentda Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati Bosh qarorgohi tashkil etilishi, Samarqand shahrida Yoshlar parlamenti a’zolarining 12-global konferensiyasi o‘tkazilishi kabi qator tashabbuslar ushbu jarayonning barqaror va davomli ekanidan darak.

Yoshlar bilan bu safargi ochiq muloqotda belgilab berilgan ustuvor vazifalar Uchinchi Renessans ijodkorlari va bunyodkorlarining kelajakka parvozini ta’minlaydigan fundamental asosga ega. Ularni qo‘llab-quvvatlash, bilim olishi, zamonaviy kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyat yaratishga zamin hozirlanmoqda. Xususan, “Kelajakka qadam” dasturi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki oldimizda O‘zbekiston taraqqiyotini ta’minlaydigan yuqori malakali muhandislar tayyorlash uchun fundamental va umummuhandislik fanlarini chuqur o‘zlashtirgan bilimli, tashabbuskor

va raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish vazifasi turibdi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim tizimi samaradorligi va ishlab chiqarishning aniq maqsadlariga yo‘naltirilgan bilan bevosita bog‘liq.

Shu o‘rinda yaqin o‘tmishga qaytib, bir voqeani eslamoqchiman. 2016-yil 15-iyun kuni Toshkent davlat texnika universitetining kengaytirilgan ilmiy kengashi o‘tkazildi. O‘shanda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vazifasida ishlayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qatnashdi. Yig‘ilishda texnika fanlari sohasida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘z taklif-



mulohazalarimni bildirdim. Shunda u kishi menga — ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisiga quyidagi muhim topshiriqni bergan edi: “Menga bitta fan doktorini tayyorlab beringki, u dunyo olimlari bilan bemalol bo‘ylasha oladigan olim bo‘lsin”. Ayni kunga kelib, oliygohimizda xuddi shunday yuqori salohiyatli avlod kamol topayotganiga aslo shubham yo‘q.

Oradan birmuncha vaqt o‘tgach, Prezidentimizning ilmiy darajalar berishining ikki pog‘onali tizimiga o‘tishga doir qaror chiqdi. Ya’ni, avvalo, tegishli fan sohasida falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSC) dissertatsiyalarini tayyorlash va himoyalarni o‘tkazish lozim. Shundan keyin ilmiy daraja olish uchun izlanuvchilarga talabar ham kuchaydi. Ilmiy kengashimiz texnika fanlariga ixtisoslashgan. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchilarni ham ilmiy rahbarlariga qator muhim talabar qo‘yildi. O‘tgan davrda kengashimizda 150 dan ortiq falsafa va fan doktori dissertatsiyalari yoqlandi. Olimlarimizning ilmiy ishlari va monografiyalari

jahonda impakt faktori yuqori bo‘lgan jurnallar hamda to‘plamlarda chop etildi. Ko‘plab ustozlarimiz dunyoning yetakchi 1000 taligiga kiruvchi universitetlari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borib, ma’ruzalar qilmoqda. Yosh olimlarimiz ham texnika va texnologiyasi rivojlangan mamlakatlarda o‘qib, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazyapti.

Shuningdek, bugun Toshkent davlat texnika universiteti xalqaro ta’lim maydonida integratsiya jarayonini chuqurlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish hamda raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida dunyoning nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma hamda dual ta’lim dasturlarini faol amalga oshirib kelmogda. Universitet qator nufuzli xorijiy ta’lim muassasalari bilan 2+2 va 1+1 formatlaridagi qo‘shma ta’lim dasturlari orqali talabalarga xalqaro mezonlarga mos ta’lim olish, ikki tomonlama diplomlar va amaliy tajribaga ega bo‘lish imkonini berdi. Belarus

davlat texnologiyalar universiteti, Belarus milliy texnika universiteti, Moskva energetika instituti kabi oliygohlar bilan hamkorlik shular jumlasidan.

2024/2025-o‘quv yilidan e’tiboran, dual ta’lim shaklida hamkorlik qiluvchi korxonalar sonini kengaytirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekiston texnologik metallar kombinati, “Veolia Energy Tashkent”, “Zavod NVA” kabi korxonalarda o‘quv yili davomida talabalarning amaliyoti dual ta’lim tizimi asosida yo‘lga qo‘yildi.

2023-2025-yillarda esa “Uzbekistan-GTL”, Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent truba zavodi, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “Hududyi elektr tarmoqlari”, “Zarafshon elektr shamol stansiyasi”, “AgroTechKlaster”, “ENTER STEEL”, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, “ADM Jizzakh”, “BYD Uzbekistan” kabi korxona hamda zavodlar bilan hamkorlikda dual ta’lim yo‘lga qo‘yilgan. Professor-o‘qituvchilarning ishlab chiqarishdagi stajirovkasi hamda korxonadagi



Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida Italiyaning Tushia universiteti bilan hamkorlikda qo‘shma kampus ishg tushdi. Mazkur tashabbus o‘tgan yilning 28-29-may kunlari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Italiya Bosh vaziri Jorja Melonining Samarqandda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida ilgari surilib, ikki davlat o‘rtasidagi ilm-fan, ta’lim sohasidagi hamkorlikning yangi yo‘nalishi sifatida belgilangan edi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Italiyaning Tushia universiteti o‘rtasida rasmiy kelishuv imzolandi. Bugun ushbu tashabbus amalda.



Shavkat HASANOV,
Samarqand agroinnovatsiyalar
va tadqiqotlar instituti rektori,
professor

Kelishuvga ko‘ra, institutimizda ikki bakalavriat va ikki magistratura yo‘nalishida qo‘shma ta’lim dasturlari yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, bakalavriat bosqichida agronomiya, oziq-ovqat texnologiyasi ta’lim yo‘nalishlari, magistratura bosqichida esa organik dehqonchilik va bioiqtisodiyot (sirkulyar iqtisodiyot) mutaxassisliklari tashkil etildi.

Rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim tizimida qo‘shma kampus loyihasi ham mavjud. Respublikamizda esa xorijiy oliy ta’lim muassasasining qo‘shma kampusi ilk bor yo‘lga qo‘yildi. Xorijiy oliy ta’lim muassasasi filialidan qo‘shma kampusning farqli jihati shundaki, u yuridik shaxs maqomida bo‘lmaydi. Ammo hamkor muassasa bilan birgalikda kelishuv asosida kadrlar tayyorlab, qo‘shma loyihalarni amalga oshiradi.

Qo‘shma ta’lim dasturi xalqaro standartlar, ikki tomonlama o‘quv rejallari va o‘qitish metodikalari asosida kechadi. Talabalar o‘qish jarayonida ikki davlatdagi ta’lim muassasalarida navbatma-navbat tahsil olishi, o‘quv dasturi yakuniga ko‘ra esa har ikki oliy ta’lim muassasasi tomonidan tan olinadigan diplom berilishi belgilangan. Qo‘shma kampus O‘zbekiston agrar ta’lim tizimi rivojida yangi bosqichni boshlab berib, mamlakatimiz yoshlariga dunyo darajasida bilim olish va xalqaro tajribaga ega bo‘lish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, talabalarga Italiyada amaliyot o‘tash, xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish va akademik tajriba almashishga sharoit yaratadi.

Ushbu kampusda tahsil olayotgan talabalarga darslar mahalliy o‘qituvchilar qatorida italiyalik professor-o‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda onlayn tarzda o‘tiladi. Qolaversa, institutimiz Italiyaning boshqa oliy ta’lim muassasalari bilan ham hamkorlikni rivojlantirmoqda.



Hamkorlik

Masalan, joriy yilning 18-19-fevral kunlari Rim shahrida Italiya — O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari rektorlarining II forumi bo‘lib o‘tdi.

Forumda Italiya Universitetlar va tadqiqotlar vazirligi, O‘zbekiston Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, CRUI — Italiya universitetlari rektorlari konferensiyasi, shuningdek, ikki davlatning

yetakchi oliy ta’lim muassasalari rahbarlari va vakillari ishtirok etdi. Dastur doirasida yalpi majlis, qo‘shma ilmiy tanlov natijalarini taqdim etish, g‘olib loyihalarni e’lon qilish hamda ikki tomonlama kelishuvlarni imzolash marosimlari o‘tkazildi.

Shuningdek, forum doirasida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti hamda Italiyaning Tushia, Piza va Padua

universitetlari bilan istiqbolli hamkorlik o‘rnatildi. Jumladan, Tushia universiteti bilan “GREEN-ESG: Strengthening ESG & Sustainability Reporting Capacities for Smart and Resilient Agro-Industries” mavzusidagi loyiha, tomonlar o‘rtasidagi institutsional hamkorlikni yanada mustahkamlash, Erasmus+, Horizon Europe, PRIMA va boshqa xalqaro moliyalashtirish dasturlari

muammolar asosida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishi bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan. Masalan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qator kafedralarimiz filiali mavjud. Navoiy mashinasozlik zavodida esa TDTU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash uchun alohida joy ajratilgan. U yerda 5 nafar tayanch doktorantimiz ishlab chiqarish muammolari bilan uzviy bog‘langan holda ilmiy ishini bajarmoqda. Korxona kafedralarning o‘quv jarayonida qo‘llash uchun 24 turdagi mahsulot namunalari va qolip ashyolarini beg‘araz bergan. O‘zaro xo‘jalik shartnomalari asosida jami 5 milliard so‘mlikdan ziyod iqtisodiy samarador 16 ta yangi texnologiya ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bilan tuzilgan xo‘jalik shartnomalari asosida 2 milliard so‘mlikdan ortiq iqtisodiy samaraga ega 9 ta, O‘zbekiston metallurgiya kombinati bilan esa jami 4,5 milliard so‘mlik 14 ta yangi texnologiya ishlab chiqarishga joriy etildi.

Mazkur ijobiy natijalar bilan birga ilmiy kengash faoliyatida ayrim kamchiliklar ham mavjud. Xususan, mashinasozlikda materialshunoslik, quymachilik, metallarga termik va bosim ostida ishlav berish, qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi, kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi, mexanizmlar va mashinalar nazariyasi, shuningdek, mashina detallari ixtisosliklari bo‘yicha yoqlangan dissertatsiyalarning aksariyatida ilmiy natijalar ishlab chiqarishga tavsiya etilgan korxonalarning aktlari mavjud va iqtisodiy samaradorlik ham ko‘rsatilgan. Shunga qaramay, moliyaviy tushum bo‘lmagan. Tadqiqotchilar xulosasiga ko‘ra, ishlab chiqarish korxonalari tushumlar bo‘yicha imkoniyati chegaralanganini ta’kidlanmoqda. Ilmiy kengash rahbariyati va ilmiy rahbarlar korxonalarga borib, bu masalalarni hal etish ustida ishlayapti. Lekin hamma og‘irlikni tadqiqotchilarga tashlab qo‘yish ham yaxshi amaliyot emas. Buni bartaraf etish uchun ilmiy kengash rahbariyatining faolligini oshirish shart.

Yana bir kamchilik, konstruksion materiallarga ishlav berish texnologiyalari va uskunalar ixtisosligidan hozirgacha birorta ham dissertatsiya yoqlanmagani bilan bog‘liq. Vaholanki, ushbu ixtisoslikka har yili tayanch doktoranturaga qabul bo‘yicha imtihonlar o‘tkazilib, mustaqil tadqiqotchilikka nomzodlar tavsiya etilmoqda. Mazkur muammolarni hal etish uchun universitetning tegishli bo‘limlari, dekanatlar va kafedralar hamjihatlikda ishlarni faollashtirishi lozim.

Umuman olganda, yutuqlar ham, kamchiliklar ham o‘zimizniki — mana shu xalq, shu vatanga daxldor. Asosiysi, har qadamimiz, har bir xatti-harakatimizda buni yodda tutsak, bas. Biz — professor-o‘qituvchilar, ustoz-murabbiylar yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, birinchi galda, ularni qo‘llab-quvvatlab, salohiyatini namoyon etishiga imkon qadar yaxshiroq sharoit yaratishimiz va bu borada davlatimiz rahbarining topshiriqlarini dasturlamal qilib olishimiz zarur. Ta’lim-tarbiya sifatini yanada oshirish, xorijiy ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish, zamonaviy laboratoriyalar va kovorking markazlari faoliyatini kengaytirish ustuvor vazifamiz bo‘lib qolmog‘i lozim. Shundagina yoshlarimiz xalqaro doirada “Men O‘zbekiston farzandiman”, deb g‘urur bilan o‘z ilmiy ishlarini ma’ruza qilayotgan va ular jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan e’tirof etilayotgan bir pallada “Bu ishlarda mening ham hissam bor”, deya faxrlanishga ma’naviy haqqimiz bo‘ladi.

doirasida qo‘shma loyiha-takliflarni ishlab chiqish, tizimli ilmiy tadqiqot hamda qo‘shma ilmiy tashabbuslarni yo‘lga qo‘yishga kelishib olindi. Talabalar, professor-o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlarning akademik mobilligini, qo‘shma kampus doirasida ta’lim dasturlarini kengaytirish, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat tizimlari, innovatsiya, raqamli transformatsiyani ilgari surish kabi maqsadlarni qamrab olgan bitim imzolandi. Bundan tashqari, institutimizdagi qo‘shma kampusda qator asosida “Sendsvich PhD” kursi tashkil etiladigan bo‘ldi.

Piza universiteti bilan “Farm2App — daladan dasturxonagacha: barqaror oziq-ovqat ta’minoti zanjirini takomillashtirish va o‘qitish uchun o‘yunga asoslangan raqamli yondashuvlar hamda innovatsion ekotizim” mavzusidagi grant loyihani amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Loyiha ikki davlat tomonidan moliyalashtirildi.

Padua universiteti hamda Italiya milliy tadqiqotlar markazi bilan muayyan loyihani grantga qayta taqdim etish va qo‘shma ishchi guruh tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Forum doirasida institutimiz bitiruvchilarining Tushia universitetidagi o‘qish jarayoni, ilmiy faoliyati va yashash sharoiti bilan tanishdik. Hozir mazkur universitetning magistratura bosqichida Qishloq xo‘jaligi vazirligi granti asosida 5 bitiruvchimiz tahsil olmoqda.

Safar davomida Tushia universitetida qo‘shma kampus doirasida yangi ta’lim yo‘nalishlarini ochish, qo‘shma PhD dasturini yo‘lga qo‘yish, Erasmus+, Horizon Europe va boshqa xalqaro dasturlar doirasida qo‘shma loyihalar tayyorlash, akademik mobillikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralar natijasida 2026-yil mart oyida qo‘shma ta’lim yo‘nalishlariga qabul e’lon qilish, 2026-yil yakuniga qadar qo‘shma doktorlik dasturini ishga tushirish, professor-o‘qituvchilar mobilligini borasida yangi kelishuv imzolash va ilmiy loyihalar bo‘yicha qo‘shma ishchi guruh tuzishga kelishildi.

QO‘SHMA KAMPUS:

Italiya bilan aloqalar oliy ta’lim tizimida
ham mustahkamlanayotganini anglatadi

“

**QO‘SHMA KAMPUS
O‘ZBEKISTON
AGRAR TA’LIM
TIZIMI RIVOJIDA
YANGI BOSQICHI
BOSHLAB BERIB,
MAMLAKATIMIZ
YOSHLARIGA
DUNYO DARAJASIDA
BILIM OLISH
VA XALQARO
TAJIRIBAGA
EGA BO‘LISH
IMKONIYATINI
TAQDIM ETADI.**



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_off



yuz.uz_news

“O'SHA KUNNI HAMON QUVONCH BILAN ESLAYMAN”

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning TURMUSH O'RTOG'IDAN DIL IZHORI

hamda O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov tavalludlarining 85 yilligini keng nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning turmush o'rtog'i Maryam opa Yoqubova-Shariatullayeva yuqoridagi farmon munosabati bilan muxbirimizga quyidagilarni gapirib berdi:

— To'g'risini aytaman, ushbu farmon haqida eshitganimda boshim osmonga yetdi. Fursatdan foydalanib, buning uchun davlatimiz rahbariga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Yoshim bir kam to'qsonda. Odil Yoqubov bilan salkam oltmish yil birga yashadik. Ko'plab asarlari qanday yaratilganiga guvohman, aksariyat hikoya, qissa va romanlarining birinchi o'quvchisi, birinchi muharriri bo'lganman.

Yashirib nima qildim, “Ulug'bek xazinasi”, “Ko'hna dunyo”, “Diyonat” kabi dunyo tan olgan romanlar yaratgan, asarlari 50 dan ortiq tilga tarjima qilingan, ko'p yillar davlat va jamoat arbobi bo'lgan yozuvchining nomi nahotki unutilib ketsa, degan fikrlar asrimiz boshida xayolimni tark etmay qo'ygandi.

Lekin kutilmaganda 2019-yilning 7-mart kuni Prezidentimiz meni — marhum Odil Yoqubovning bevasini Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida yuksak davlat mukofoti — “Do'stlik” ordeni bilan mukofotladi. Ordenni olayotgan paytimda ko'zimdan tinmay quvonch yoshlari oqardi. Buni ko'rgan davlatimiz rahbari “Odil aka dunyo taniyidigan, buyuk asarlar yaratgan yozuvchi edi. Siz shu asarlarning yaratilishiga hissa qo'shgansiz, u kishiga sharoit yaratib bergansiz, ilhomlantirgansiz. Biz shuni e'tirof etishni zarur deb topdik. Kelajakda u kishiga va yaratgan asarlariga, merosiga bundan ham katta e'tibor beriladi. Chunki Odil aka shu diyardan chiqqan buyuk allomalarni o'z asarlari bilan dunyoga tanitgan adib edi”, degani hali-hamon qulog'im ostida jaranglab turibdi.

Bu yuksak mukofotni Prezidentimizning o'zi topshirgani faqat meni emas, ko'pchilikni hayratga soldi. Buni adabiyotga, kitobga, marhum yozuvchi va shoirlar ruhiga hurmat, e'tibor, e'tirof, ehtirom namunasi deb bildim. Meni bu mukofot bilan nafaqat yozuvchi



va shoirlar, san'at va madaniyat ahli, balki adibning muxlislari — oddiy kitobxonlar ham chin dildan tabrikлади. O'sha kunni hamon quvonch, o'zgacha bir etkish bilan eslayman.

Bu haqida xabar topgan marhum turmush o'rtog'imning Qozog'iston va Qirg'izistondagi yozuvchi do'stlari, shogirdlari ham quvonchlarini izhor etdi. Qozoq yozuvchisi, professor Qulbek Erg'ubek telefon orqali tabriklar ekan, bu xayrli ishdan mashhur qozoq

adibi Muxtor Shoxonov hayratga tushganini yashirmadi. U “Vafot etib ketganimizdan keyin davlat rahbari tomonidan bizning bevalarimizga ham shunday e'tibor va ehtirom ko'rsatilsa, qani edi...”, debdi.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tmasam bo'lmas. To'qsoninchi yillarning boshida Odil aka Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasi raisi edi. O'sha paytda gazeta va jurnallarda, odamlar o'rtasidagi muloqotlarda ham go'yo ona tilini

“

YOSHIM BIR KAM TO'QSONDA. ODIL YOQUBOV BILAN SALKAM OLTMISH YIL BIRGA YASHADIK. KO'PLAB ASARLARI QANDAY YARATILGANIGA GUVOHMAN, AKSARIYAT HIKOYA, QISSA VA ROMANLARINING BIRINCHI O'QUVCHISI, BIRINCHI MUHARRIRI BO'LGANMAN.

xorijiy so'zlardan tozalash bahonasida rayonni nohiya, universitetni dorilfunun, fakultetni kulliyot, samolyotni tayyora, aeroportni tayyoragoh kabi so'zlar bilan atash an'anaga aylana boshladi. Bu tilga bepisandlikdan boshqa narsa emasdi, albatta. Shuning uchun qo'mita tashkil etilgandi.

O'sha kunlarning birida Odil aka uyga uch-to'rt do'sti bilan kirib keldi. Kayfiyati juda a'lo edi. Bilsam, o'sha kuni qo'mita a'zolari poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumani va hududda joylashgan korxonalarda o'zbek tilining qo'llanishi bo'yicha o'rganish o'tkazgan ekan. Kayfiyati a'lolligining sababini so'ragandim, turmush o'rtog'im: “Tuman hokimi Shavkat Mirziyoyev qilayotgan ishlarni ko'rib, to'g'risi, xursand bo'ldik. Yosh, ischchan va o'ta ziyoli yigit ekan. Ishi boshidan oshib-toshib yotgan bo'lsa-da, o'zbek tilining tatbiq qilinishini o'z nazoratiga olibdi. Qani endi, shunday ischchan hokimlar O'zbekistonda ko'proq bo'lsa”, dedi.

Xuddi shunday holat 1997-yilda Jizzax viloyatiga borib kelganidan keyin yana qaytarildi. O'sha paytda viloyatda hozirgi davlatimiz rahbari hokim edi. Demogichimanki, Shavkat Mirziyoyev qayerda ishlamasin, hamisha til, adabiyot, san'at, madaniyat, ma'naviyat rahnamosi, jonkuyari bo'lib kelgan, kitob targ'iboti bilan shug'ullangan. Eng quvonarlisi, bugun shu xayrli an'ana mamlakatimiz bo'ylab davom etmoqda. Buni faqat o'zbekistonliklar emas, dunyo e'tirof etyapti.

Odil aka qirg'izistonlik buyuk adib Chingiz Aytmatov bilan yaqin do'st bo'lganini ko'pchilik yaxshi biladi. Ular birgalikda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati

assambleyasini boshqardi. Bundan tashqari, Odil aka dog'istonlik Rasul Hamzatov, boshqirdistonlik Mustay Karim va Axiyor Hakimov, qalmiqiyalik David Kugultinov, ukrainalik Oles Gonchar, belaruslik Vasil Bikov, rossiyalik Viktor Astafyev va Sergey Boruzdin, gruziyalik Chabua Amiredjibi va Nodar Dumbadze, abxaziyalik Fozil Iskandar, ozarbayjonlik Anor, armanistonlik Silva Kaputikyan, tojikistonlik Mo'min Qanoat, qozog'istonlik O'ljas Sulaymonov, Muxtor Shoxonov, Abdijamil Nurpeisov, turk adibi Aziz Nesin va boshqa ko'plab mashhur shoir hamda yozuvchilar bilan yaqin do'st edi. Ularning deyarli hammasi O'zbekistonga tez-tez kelib turardi, ko'pchiligi xonadonimizda mehmon bo'lgan.

O'sha davrda “o'zbeklar ishi”, “paxta ishi” kabi kampaniyalar boshlanganda Odil aka Moskvadagi markaziy nashrlarda xalqimizni himoya qilib maqolalar chiqardi, Oliy sovet sessiyalarida nutqlar so'zlad. Shunday qiyin paytlarda yuqoridagi tilga olingan do'stlari Odil akani qo'llab-quvvatladi, yonida turdi. Chingiz Aytmatov esa “Pravda” gazetasida o'zbeklar buyuk xalq ekanini isbotlab, maqola chiqardi. Ilohim, bunday kunlar boshqa qaytib kelmasin.

Prezidentimizning farmonida ko'zda tutilgan keng qamrovli tadbirlar qatori Odil Yoqubovning yubileyi respublika miqyosida nishonlanishi ulug' adib ruhini shod etadi. Bu faqat oilamiz a'zolari emas, yozuvchi asarlari muxlislari, barcha kitobsevar do'stlarimiz uchun ham katta sovg'a bo'ldi deb o'ylayman va bu xayrli, savobli ishlarning boshida turganlarga yana bir marta minnatdorlik bildiraman.

Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston davlatchilik tarixi qadimiy Dovon davlati tarixi bilan uzviy bog'liq. U Sharq bilan G'arb mamlakatlari bog'lab turuvchi, Buyuk ipak yo'lidagi muhim geosiyosiy ahamiyatga ega davlat bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra, bu diyordagi 70 tacha katta-kichik shahar aholisi soni bir necha yuz mingga yetgan.

QADIM SHAHRISTON TEPALIKLARI SINOATI



Moziyga nazar

Shaharlar ichida Quva (Qubo) madaniy hayot tarzi, hunarmandchilik an'analari bilan alohida o'rin tutgan. Ba'zi yozma manbalarda Qubo ilk bor VIII asrda tarixiy voqealar bayoni kontekstida taxt vorisi qarorgohi sifatida tilga olinadi. X asrdan boshlab Quva nomi yozma manbalarda ko'p uchraydi. Uning mintaqaviy ahamiyati va rivojlanish jarayoni haqida ham kengroq ma'lumotlar berila boshlagan. Ushbu shahar tarixi arxeologik jihatdan yuz yilga yaqin o'rganilgan. Dastlab Katta Farg'ona kanali qurilishi yillarida arxeologlar ko'zdan kechirgan. 1950-yillarga kelib, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyasi bu yerda rejali qazish ishlari bajardi.

Arxeologlar qadim tepalikning 10 ta nuqtasida tizimli qazishma ishlari amalga oshirgan. Tadqiqotlar natijasida shahar tarixining uchta asosiy davriga mansub arxeologik komplekslar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi. Topilgan sopol buyumlar jamlamasi Quvada kulolchilik yuksak darajada rivojlangani, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqalarga ega bo'lganini namoyon etadi. Shahardan eng qadimgi, antik va ilk o'rta hamda rivojlangan o'rta asrlarga oid madaniy-madaniy yodgorlik namunalari topilgan. Qazishma ishlari natijasi ingliz va

o'zbek tillarida nashr etilgan monografiya hamda arxeologlarning turli ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalarida o'z ifodasini topdi.

Keyingi yillarda ko'hna tepalik ostida yashiringan sir-sinoatlarni o'rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etishga qiziqish yanada kuchaydi. Shaharning tarixiy tuzilishi

va rivojlanish xususiyatlari haqida yangi ma'lumotlar to'plandi. Farg'ona viloyati hokimligi, Farg'ona davlat universiteti professor-o'qituvchilari, magistrant va talaba yoshlar Madaniy meros agentligi viloyat bo'limi bilan hamkorlikda shahriston yodgorligida navbatdagi arxeologik qazuv-tadqiqot ishlari bajardi.

maydonida bajarildi. Natijada shaharning o'rta asrlar davridagi shaharsozlik xususiyatlari, me'moriy rejalashtirish prinsiplari va xo'jalik faoliyatiga doir qator qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

Bu hamkorlik doirasida qadimgi yodgorlikda qazuv ishlari bajarish bilan birga tegishli yo'nalishlarda o'qiyotgan talabalar malakasi va mahoratini oshirish, “Farg'ona — Loyan arxeologik tadqiqot markazi”ni tashkil etish hamda Quva yodgorligini muzeyga aylantirish ko'zda tutilgan. Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti tarkibida alohida O'zbekiston — Xitoy arxeologiya qo'shma kafedrasini ochildi.

— Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar shaharning rabot (hunarmandlar va savdo hududi) qismi hozirgi zamonaviy shahar infratuzilmasi ostida qolib ketgani sababli buzilgan va to'liq tiklanmaganini ko'rsatdi. Shu bois, asosiy e'tibor rabotning joylashuvi hamda yo'nalishini aniqlashga qaratildi, — deydi O'zbekiston — Xitoy arxeologiya qo'shma kafedrasini mudiri Gulnora Farmonova.

— Tanchan usuli yordamida o'tkazilgan izlanishlar natijasida Quva rabotining buzilgan qismlari va chegaralari aniqlandi. Hozir rabot devorining yo'nalishi bo'yicha aniq ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Bundan tashqari, yodgorlikning janubi-g'arbida ham ark mudofaa devorining paydevor qismi aniqlandi. Qazishmalar natijasida ark bilan shahriston tutashgan yerda shaharning darvozasi o'rni ma'lum bo'lgan. Mazkur darvozadan budda ibodatxonasi tomon yo'l borligi, yo'lining handaq o'tgan joyida ko'prik bo'lgani ham tasdiqlandi. Shahristonni o'rab turgan mudofaa devorining qalinligi, chegarasi hamda handaqning qayerdan boshlangani, qanday yo'nalishda davom etgani haqida ishonchli ma'lumotlar to'plandi. Demak, Quva (yozma manbalarda Qubo) tarixini o'rganish

doimo arxeologlar e'tiborida bo'lib kelgan. Chunki uning sirlarini ochishda arxeologik qazishma va topilmalar ishonchli manbadir. Quva shahrining tarixi va madaniyati haqida to'liq tasavvur hosil qilish faqat yozma manbalar bilan cheklanib qolmaydi, aksincha, arxeologik ma'lumotlar orqali shaharning qadimiylilik darajasi, urbanizatsiya jarayoni, savdo-iqtisodiy aloqalari, mudofaa tizimi hamda madaniy hayoti haqida aniq va dalillangan xulosalarga erishish mumkin. Mavjud adabiyotlar va arxeologik topilmalar bo'yicha tarixshunoslik tahlili shaharning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini manbashunoslik, tarixshunoslik hamda arxeologik nuqtayi nazardan chuqur o'rganish bugun uchun ham muhim ilmiy-nazariy vazifa bo'lib qolishini ko'rsatadi. Ayniqsa, qadimiy davrlardan o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarni integratsiyalashgan yondashuvda o'rganish orqali Markaziy Osiyo tarixi, savdo yo'llari, dinlararo aloqalar hamda shahar hayotining evolyutsiyasi haqida yangi va aniqlangan bilimlar olish mumkin. Shu bois, Quva tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, yangi qazishma natijalarini yozma manbalar bilan solishtirish va ularni kompleks tarzda tahlil qilish mintaq tarixini ilmiy qayta tiklash hamda boyitish ustuvor yo'nalishlardan.

Qubo shahristoni an'anaviy tarzda ark (hokimlik qarorgohi), shahriston (aholi yashagan asosiy qism), rabot (hunarmandlar va savdo hududi)dan iborat. Bu yerda ochiq osmon ostidagi muzey loyihasini amalga oshirish borasida ishlanmoqda. Shu maqsadda Farg'ona davlat universiteti huzurida osori atiqalarni o'rganish, tahlil qilishga ixtisoslashgan zamonaviy laboratoriya tashkil etildi.

Rasuljon NAZIROV,
jurnalist

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
31346 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy